

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
AL – XORAZMIY NOMLI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI
“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA” KAFEDRASI**

401-guruh talabasi Xo‘janiyozova Qunduzning
“Oilada farzandlar bilan muloqotni yo‘lga qo‘yishning pedagogik-psixologik shart-
sharoitlari” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIYSA

ILMIY RAHBAR: dotsent.Ismailova Sh

TAQRIZCHI: XVPKQTMOI dotsenti Maxmudova N

Urganch – 2012 yil.

Urganch Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrası
Malakaviy bitiruv ishini tayyorlash bo`yicha topshiriq.

Talaba _____

1. Malakaviy bitiruv ish mavzusi: _____

2. Pedagogika fakulteti Ilmiy kengashining «_____» _____ dagi
_____ yig`ilishida muhokama qilinib,
№ _____ buyruq bilan tasdiqlangan.

3. Talabalarning tugallangan ishini topshirish muddati _____

4 MBI uchun berilgan ma`lumotlar (masalan, maktab dasturi bo`limi,
topshiriq va h) _____

5. Malakaviy bitiruv ishi tarkibi va bo`limlarining qisqacha mazmuni:

a) Malakaviy bitiruv ishining nazariy qismi (ishlanadigan savollar ro`yxati va
tajriba tadqiqotlarning yoritilish tartibi)

b) MBIning amaliy qismi ro`yxati _____

v) yordamchi materiallar ro`yxati (testlar, diagrammalar, matritsalar, jadval,
rasmlar va sxemalarx.k.) _____

g) pedagogik tajriba (yoki manbalar) bo`yicha yig`ilgan materiallar (manbalar, o`quvchilar ishlari, eksperiment) _____

6. BMI bo`yicha konsultant (qaysi bo`lim bo`yicha ekanligi ko`rsatiladi)

7. Topshiriq berilgan vaqt _____

Malakaviy bitiruv ishi kafedrada tasdiqlangan sana: _____

Kafedra mudiri:

dots.Sh.Ismailova

Ilmiy rahbar:

Topshiriqni bajarish uchun «_____» _____ da qabul qildim.

Bitkazuvchi talaba:

Malakaviy bitiruv ishi loyixasini bajarish

GRAFIGI

Malakaviy bitiruv ishi mavzusi: “Oilada farzandlar bilan muloqotni yo`lga qo`yishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari”

№	Loyixi bosqichlarining nomi	Nazorat vaqti	Ish to`liq bajarilgan taqdirda kafedra mudiri va ilmiy rahbar imzosi bilan tasdiqlanadi	
			Kaf.mudiri	rahbar
1	Mavzuni kafedrada tasdiqlash	18.05.11		
2	Malakaviy bitiruv ishi mavzusini olish va tadqiqot rejasini ishlab chiqish.	25.05.11		
3	Maxsus adabiyotlarni o`rganish, loyixa bo`yicha psixologik – pedagogik , metodik va amaliy materiallari yig`ilishi.	23.11.11 gacha		
4	Loyixa bo`yicha tajriba mazmuni, xajmi va tartibini aniqlashtirish.	07.12.11		
5	Tajriba ish (o`qish)larni tashkil qilish va o`tkazish sifati (maktab, kollej..)	12.01.12		
6	Malakaviy bitiruv ishi loyixasining dastlabki eskizlarini tasdiqlash.	10.02.12		
7	Malakaviy bitiruv ishining elektron varianti loyixasining dastlabki eskizlarini tasdiqlash.	03.02.12		
8	Barcha eskizlarni to`la tasdiqlash va malakaviy bitiruv ishi loyixasi	31.03.12		

	nazariy va amaliy qismlari tasdiqlash.			
9	Malakaviy bitiruv ishi loyixasini bajarishning borishi nazorati va uning nazariy hamda amaliy qismlarining kafedradagi muhokamasi.	20.04.12		
10	Kafedra mudiri va rahbar tomonidan tugallangan loyixani ko`rikdan o`tkazish.	5.05.12		
11	Tugallangan ishni malakaviy bitiruv ishi loyixasi raxbar xulosasi va uni himoyaga tavsiyasi bilan birgalikda kafedraga taqdim qilish.	19.05.12		

Izox: Reja bo'yicha xar bo'lim to'liq imzolangan taqdiridagina talabaga bitiruv malakaviy ishini himoya qilishga ruxsat beriladi.

Bitkazuvchi talaba nomi va imzosi: Xo`janiyozova Qunduz _____

Ilmiy rahbar nomi va imzosi: dotsent.Ismailova Sh _____

Talaba _____ ning

« _____
_____ »

mavzusida bajargan malakaviy bitiruv ishi «Pedagogika va psixologiya»
kafedrasining « _____ » _____ dagi yig'ilishida muhokama qilinib, Davlat
Attestatsiya Komissiyasida himoya qilishga ruxsat berildi. Bayonnoma № _____

Kafedra mudiri: _____

Malakaviy bitiruv
ishi rahbari: _____

Kotib: _____

OILADA FARZANDLAR BILAN MULOQOTNI YULGA KUYISHNI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

Mundarija

Kirish.....	
1. OILADA FARZANDLAR BILAN MULOQOTNI YO'LGA QO'YISHNI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI.....	
1.1.Oilada muloqotni yoshga xos xususiyatlari.....	
1.2.Farzandlar bilan muloqotni tashkil qilishda milliy –ma'naviy merosning o'rni.....	
2. OILADA FARZANDLAR BILAN MULOQOTNI YULGA KUYISHNI TAJRIBA- SINOV NATIJALARI.....	
2.1. Oiladagi farzandlar bilan muloqotni vositalari va darajalari.....	
2.2.Ota-onalarni o'z farzandlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarni aniqlash metodikasi natijalari.....	
Xulosa.....	
Adabiyotlar.....	
Ilova.....	

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, «Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor»[5,46].

Prezidentimiz fikrlarida oilaning eng avvalo, e'tiqod va sog'lom dunyoqarash tarbiyasidagi benazir roli ta'kidlangandir. SHu sababli oila hamda mahalla tizimida bola tarbiyasi bilan bog'liq barcha tarbiyaviy ishlarning asosida xalq an'analarining, xususan, oilaviy o'zaro munosabatlarda saqlanib qolgan milliy qadriyatlarning tub mohiyatiga aloqador qonuniyatlarni o'rganish vazifasi turibdiki, ularning ijtimoiy psixologik shart-sharoitlarini tadqiq etish, qo'lga kiritilgan natijalarni amaliyotga tadbiq etishni davrning o'zi taqozo etib turibdi. CHunki barqaror va mustahkam oilani shakllantirish, unda ma'rifatlilik an'analarini kuchaytirish, oilaviy urf-odatlarni zamon talablari asosida qayta o'rganib chiqib, eng nodirlariga nisbatan yoshlarimizda, ayniqsa, o'smirlik va o'spirinlik yoshidagi farzandlarimizda e'tiqodni tarbiyalashning ta'sirchan vositalarini ishlab chiqish jamiyat ma'naviyatini barqarorlashtirishni ta'minlaydigan omillardandir. Bugungi kunda oiladay ta'sirchan ijtimoiy institut orqali bolalarda aynan shunday qadriyatlarga nisbatan e'tiqodni shakllantirish, va shu orqali oilaga nisbatan ijobiy ijtimoiy ustanovkalarni hosil qilish dolzarb masalalardandir.

O'zbekiston o'zining mustaqilligini qo'lga kiritgach, asriy madaniy va ma'naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz tiklanishi, har bir fuqaro ongida kelajagi buyuk yurti borligini anglash, Vatanga cheksiz mehru-muhabbat, sadoqat va o'z mehnatidan manfaatdorlik, shu orqali oila hamda nikohning muqaddasligi g'oyasini singdirish uchun qulay shart-sharoitlar paydo bo'la boshladi. Mustaqil davlat amalga oshirayotgan bunyodkorlik ishlari, tub islohotlari kundan kunga

Vatanimizning buyuk kelajagiga ishonch, yurt tinchligi, farovonligiga aloqador muqaddas tushunchalarning mohiyatini anglash, ularni fuqorolar ongiga, birinchi navbatda, o'sib kelayotgan yosh avlod qalbiga singdirishda esa oila institutining roli kuchli bo'lganligi uchun ham oilaga oid qadriyatlarga nisbatan o'smirlardagi e'tiqodni tarbiyalovchi shart-sharoitlarni o'rganish vazifasini dolzarb muammo sifatida kun tartibida turibdi.

Har qanday jamiyatda bo'lgani kabi bizning jamiyatimizda ham har bir alohida shaxs va yaxlit xalq manfaatlarini himoya qiluvchi, ularni birlashtiruvchi, yurt tinchligi va turmush farovonligini ta'minlovchi ilg'or g'oyalar borki, ularning har bir fuqaro tomonidan anglanganlik darajasi ana shu jamiyatning rivojlanishi tamoyillarini belgilaydi. SHu ma'noda shaxsdagi axloqiylik va e'tiqodlilikni ana shunday sog'lom dunyoqarashlarni, teran fikrlashni ta'minlovchi ijtimoiy psixologik omil hamda shart-sharoit, deb e'tirof etish mumkindirki, uning mohiyatini ilk bolalikdan oila muhitida, undagi qadriyatlar doirasida, ota va onaning obro'si, bilimdonligi, o'rnak bo'luvchi shaxs sifatidagi ta'sirida ular ongiga singdirish psixologik ahamiyatga ega. CHunki oila - asrlar mobaynida xalq an'nalari, milliy rasm-rusmlar va odatlarni saqlab hamda namoyon etib kelayotgan noyob makondir [6,37].

Prezidentimiz I. Karimov oila va undagi an'analarga, milliy qadriyatlarimizga juda katta e'tibor berib, oilaning mustahkam bo'lishi, unda yosh avlod tarbiyasining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi eng avvalo ulardagi mustaqil fikrlash, sog'lom e'tiqod va teran dunyoqarashni shakllantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlab, shu asnoda tarkib topadigan qarashlar tizimini millatning mafkurasi, deb ta'riflaydilar: «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kuni o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman».

Aynan mustaqillik yillarida yoshlarni oila va unda saqlanib kelayotgan azaliy qadriyatlar ta'sirida axloqan tarbiyalash muammosi ko'plab nazariy va

empirik izlanishlar predmetiga aylanmoqda. Zero, bunday yondashuv o'tmish allomalarning falsafiy-g'oyaviy qarashlari, oila va oilaviy tarbiya masalalariga bag'ishlangan o'g'itlari ma'no-mohiyatiga mosdir. SHarqning buyuk mutafakkirlari sanalmish Ahmad al-Farg'oniy, Maxmud az-Zamaxshariy, Abu Nasr al-Farobiy, Abu Bakr Muxammad ibn Al-Abbos Al Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino kabi o'nlab allomalar qarashlarida bola tarbiyasida eng muhim ijtimoiy omil sifatida oila, ota-onalarning dunyoqarashlari, tarbiya uslublari va bunda jamiyat e'tirof etgan normalarning oila qadriyatlariga muvofiqligi tamoyili o'z ifodasini topgan. Alohida ta'kidlash joizki, oxirgi yillarda tarix va madaniyatshunoslik, ma'naviyat va axloqshunoslik, adabiyot va dinshunoslik, falsafa va pedagogika yo'nalishlarida chop etilayotgan qator risola va kitoblarda, ilmiy va ommabop maqolalarda ham bu masalaning turli jihatlari yoritilmoqda. Biroq, yuqorida ta'kidlangan oilaga tegishli an'analarga nisbatan shaxs e'tiqodliligining har bir jamiyat a'zosining ehtiyojiga aylantirilishiga imkon beruvchi ijtimoiy psixologik shart-sharoitlarini o'rganish o'z echimini kutib turibdi.

Oilaviy an'ana va qadriyatlarga nisbatan e'tiqodlilik tushunchalarini ta'riflashda quyidagilarni nazarda tutamiz: «E'tiqod» atamasining o'zi arabcha «ishonch» so'zidan olingan bo'lib, e'tiqodlilik shaxsning hayot, uning qadriyatlari, normalari hamda ijtimoiy rollar to'g'risidagi tushuncha, tasavvur va bilimlarining anglangan va shu bois kundalik turmushda rioya qilinadigan ehtiyojga bog'liq fazilatidir. U – anglangan ijtimoiy ustanovka bo'lib, shaxslararo munosabatlar tizimida shaxs uchun ahamiyatli bo'lgan kishilar guruhi – referent guruh ta'sirida fasilitatsiya hodisasi tufayli shakllanadi.

E'tiqodning ijtimoiy psixologik konformlilikdan kelib chiqadigan ishonuvchanlikdan farqli jihati shundaki, ishonuvchanlik shaxsning ongsiz moslanuvchanligi, muhitning qadriyatlariga nisbatan vaqtinchalik ustanovkalarini ifodalansa, e'tiqodlilik – anglangan ustanovka sifatida shaxsning aniq ijtimoiy tasavvurlari, bilimlariga asoslangan baholari hamda shaxsiy maslaahlaridir.

Oilaga tegishli bo'lgan e'tiqodlilik oilaparvarlik bilan ham bog'liq bo'lib, bu tushuncha - shaxsdagi ijtimoiy tasavvurlar majmuidagi oilaning an'analari,

udumlari, rasm-rusmlari hamda qadriyatlariga nisbatan ijobiy ijtimoiy ustanovkani ifodalaydi. Empirik jihatdan oilaparvarlik o'smirlardagi oilaga nisbatan mutanosib, ijobiy ustanovkada, ota-onalar bilan hamkorlikning samarali shakllarida, ota-ona qadrlagan udum va an'analarga nisbatan e'tiqodda, oilaviy burch, mas'uliyat, oilaviy hayotga psixologik jihatdan tayyorgarlikda ifodalanadi.

Mavzuning dolzarbligi.

Oila ijtimoiy institut sifatida, eng avvalo tug'ilish orqali aholining ma'lum miqdorda o'sib borishi, har bir jamiyatning betakror qadriyatlari avlodda-avlodga o'tishda oilaning o'rnini kattadir. Fuqarolik holatlari, madaniy o'sish, manaviy yuksalishga xizmat qiluvchi qadriyatlarni saqlanib kelayorganligi ham oila tufaylidir. Shunday ekan biz tadqiqot qilayotgan oilada farzandlar bilan muloqotni yo'lga qo'yishga qaratilgan bitiruv-malakaviy ishi juda dolzarb muammolarni yechishdek masalaga qaratilgan.

Tadqiqot maqsadi.

O'zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o'rtasida muloqot xususiyatlarini ilmiy pedagogik jihatdan tahlil qilish, xulosalar umumlashtirish va muayyan tavsiyalarni ishlab chiqish, oilada farzandlar bilan muloqotni amalga oshirishda milliy mana'viy merosni o'rnini, to'g'ri muloqotni amalga oshirishni ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari.

-tadqiqot maqsadi va vazifasini belgilash, shu ish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish.

-adabiyot va tahlil.

-tadqiqot metodlarini belgilash.

-tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish va amalga oshirish.

-oilada farzandlar bilan muloqotni amalga oshirish bo'yicha pedagogik-psixologik ko'rsatmalar ishlab chiqish.

-farzandlar bilan muloqotni amalga oshirishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish bo'yicha tavsiyalar berish.

-oila a'zolarining o'zaro munosabatlari va manfaatlari, ular orasidagi muloqotni to'g'ri tashkil qilishni ilmiy asoslash.

Tadqiqotning obyekti.

O'zbek oilalarida farzand tarbiyasi masalalari hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti.

Oilada ota-ona va farzand o'rtasida muloqot xususiyatlari.

Tadqiqotning metodologik asosi.

“Ta’lim to’g’risidagi” Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Prezidentimiz I. A. Karimov asarlari, O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi (Toshkent 1996 y), XXI asr oilasi konsepsiyasi (Respublika Oila ilmiy amaliy markazi Toshkent 2002 y), O'zbek oilasi tarixidan (Bo'riyev O. Toshkent 1995 y), V. Karimova Oila tafakkur va salomatlik (Boshlang'ich ta'lim N2 2005 y) E. G'oziyev Muomila psixologiyasi (Toshkent 2001 y), M. Mahmudova Oila munosabatlari psixologiyasi (Toshkent 2001 y), M. Maqsudova Muloqot psixologiyasi (Namangan 2004 y), M. Inamova Oilalarda bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash milliy qadriyatlar (Toshkent 1995 y) O. To'rayeva Oilada bola tarbiyasi (Toshkent 1995 y).

Tadqiqot metodlari.

1. Kuzatish metodi. Oilaviy munosabatlarni kuzatish bu turmush vaziyatlarida oila a'zolarini tashqi xulq-atvorini idrok etish va muntazam qayd qilib bo'lish tushuniladi.
2. Aniq vaziyatlarni tahlil qilish metodi. Bu metodda kompleks yondashuv talab etiladi, testlar o'tkazish, oila a'zolarini biografik ma'lumotlarni tahlil etish yoki aniq maqsadli so'rov o'tkazish tushuniladi.
3. So'rov metodi.
4. Eksprement metodi. O'zbek oilalarida farzandlar bilan muloqotni yo'lga qo'yishni pedagogic-psixologik jihatdan tahlil qilishda Xonqa tumanidagi 20 ta oilada pedagogik eksprement olib borildi.

Tadqiqotning farazi.

1. Agar ota-onalarning pedagogik-psixologik bilimlari tizimli shakllantirilsa.

2. Ota-ona farzandlarining yosh va individual psixologik xususiyatlarini inobatga olsa.
3. Farzandlar bilan muloqotda sharqona odob va muomila madaniyatiga rioya qilinsa, muloqot samarali amalga oshadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati.

Davlat oilaga o`ziga xos sveren tuzilma sifatida qaraydi. Lekin oilaviy nizolarni oldini olishda oilani istiqbolini belgilashda o`z-o`zini boshqarish organlarini faoliyati muhimdir. Ushbu tadqiqot ishi oilada farzandlar bilan muloqotni yo`lga qo`yishda so`rovnomalar natijalar asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar beradi.

Himoyaga qo`yiladigan holatlar.

-Oilada farzandlar bilan muloqotni to`g`ri yo`lga qo`yish orqali ularda muloqochanlik shakllantiriladi.

-Oilada farzandlarning yoshiga xos xususiyatlarini hisobga olish orqali ijobiy muloqot amalga oshiriladi.

-Milliy ma`naviy meros orqali ota-ona va farzandlar o`rtasida munosabat to`g`ri tashkil qilinadi.

-Oilada ijobiy muloqot farzandlarni bevosita oila qurishga undagi o`zaro munosabatlarga tayyorlaydi.

1.1. OILADA FARZANDLAR BILAN MULOQOTNI YULGA KUYISHNI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIXATLARI

1.1.Oilada muloqotni yoshga xos xususiyatlari

Muloqot shaxslararo munosabatlarning shunday ko'rinishidirki, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan o'zaro ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, o'zaro axborot almashadilar, bir-birlariga ta'sir o'tkazadilar, bir-birlarini his qiladilar, bir-birlarini tushunadilar[32,18].

SHuning uchun muloqot ijtimoiy psixologik hodisa sifatida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida ishtiroq etib, hamqorlik faoliyatining moddiy, ma'naviy, madaniy, emotsional, motivatsion qirralarining ehtiyoji sifatida vujudga keladi. Insonda yuzaga keladigan har xil ehtiyojlarni maqsadga muvofiq ravishda qondirish muloqot maromiga bog'liq bo'lib. shaxslararo munosabat, barkamol avlod, komil inson g'oyalarini anglatadi. Muloqot muvaffaqiyatining negizi shaxsning ruhiy dunyosi, ehtiyojlari motivatsiyasi, harakter hislati, individual-tipologik xususiyati, qobiliyati, e'tiqodi kabi insonning fazilatlari, sifatleri namoyon bo'lishi, rivojlanishi hisoblanadi. Muloqot jarayonida muloqotdoshlarning tasavvurlari, qiziqishlari, his-tuyg'ulari, ko'nikmalari, voqelik natijasini oldindan sezish, payqash, ta'sir o'tkazish uslubi tarkib topishi mumkin.

Muloqot tashqi ta'sirlar, namunalar asosida o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ruyobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi,

komillik sari etaklaydi.

Barkamol insonlarning muomala maromi, mulohaza yuritish uslubi, munosabatga kirishish o'quvchanligi, vaziyatdan chiqish salohiyati ham, boshqa odamlar tomonidan taqlid qilinadi va hayot tajribasida unga rioya etib yashaydi. Odamlar o'rtasidagi shaxslararo munosabat jarayonida g'ayritabiiy ijtimoiy holat yoki hodisaga ongli tayanish - o'zini - o'zi mukammallashtirish, o'zini - o'zi ruyobga chiqarish, o'zini-o'zi boshqarish, o'zini - o'zi baholash, o'ziga - o'zi buyruq berish shaxsning ruhiy dunyosida muhim kamolot bosqichidir [32,21].

Muloqotga kirisha olmaslikning asosiy sababi - bu o'zini - o'zi ortiqcha yoki past baholash tufayli o'ziga va uni qurshab turgan odamlarga noto'g'ri munosabatdir. Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo'lib, asosan quyidagilarga ahamiyat berish ijobiy samaralar sari etaklaydi:

1) hamqorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha a'zolari o'rtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsional muhitni taqqoslash imkoniyatini yuzaga keltirish.

2) muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir a'zoning qulay pozitsiyasini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.

3) insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari to'g'risidagi axborotni egallashga oid maxsus mashg'ulotlarni uyushtirish.

4) shaxslararo munosabatlar va muloqot usullariga mo'ljallangan ishbilarmonlik o'yinlari, psixodrama, trening tizimini yaratish.

L. S. Vigotskiy, A. N. Leontev, A.R. Luriya, D.B.Elkonin, A. V. Zaporjets, M. I.Lisina tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, bolaning dastlabki ijtimoiy ehtiyojlaridan biri - bu muloqotga nisbatan ehtiyojdir. A.V.Zaporjets va M. I. Lisinalar tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji 7 yoshgacha bir nechta bosqichlar tarzida rivojlanib boradi:

- 1) e'tibor va hayrixohlikka ehtiyoj paydo bo'ladi;
- 2) kattalar bilan hamqorlik qilish ehtiyoji tug'iladi;
- 3) avvalgi barcha ehtiyojlarga kattalar tomonidan hurmat qilish ehtiyoji tug'iladi;
- 4) maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada atrofdagilar bilan o'zaro bir-birini

tushunish ehtiyoji vujudga keladi.

Xullas, inson o'zini idora qilish, turli vaziyatlarda o'zini tutish fazilatlari o'zlashtirilayotgan davrda ba'zi bir qoidalarga rioya qilsa, hamqorlik fazilatida ma'lum yutuqlarga erishadi [26,81].

MULOQOTNING YOSHGA XOS XUSUSIYATLARINI QUIYIDAGI TURLARGA BO'LISH MUMKIN

Go'daklarning kattalar bilan bo'ladigan muloqoti. Oilada bola tug'ilishi bilan oila a'zolari u bilan muloqotga kirishishga harakat qiladilar. Lekin chaqaloq muloqotga darhol tayyor bo'lmasdan, u uxlaydi, yig'laydi va emadi. CHaqaloq o'zining hayotini shartsiz refleks, ya'ni qichqiriq bilan boshlaydi. Birinchi qichqiriq nutqning birinchi belgisidir. Ayrim olimlar birinchi qichqiriqni salbiy emotsiya deb ataydilar. Haqiqatdan ham chaqaloq o'zining qichqirig'i bilan uyquga, ovqatga, issiqlikka bo'lgan ehtiyojini bildiradi.

Insonning tabiati shundayki, u atrofdagilar bilan muloqotda bo'lmasdan yashay olmaydi. Bola tug'ilganda uning onasi o'zining mehrini muloqot orqali beradi. SHuningdek, oilaning boshqa kattalari ham chaqaloq bilan muloqotda bo'lmasdan turolmaydi. Kattalar tomonidan bo'ladigan to'g'ri muloqot chaqaloqda muloqotga bo'lgan ehtiyojni shakllantiradi. CHaqaloqda birinchi u bir oylik bo'lganda "ga", "da", "ua" kabi nutq belgilari paydo bo'ladi. Bolaning muloqoti reaktiv (passiv) yoki aktiv (faol) shaklda bo'ladi. Bolaning kattalar bilan qiladigan muloqoti dastlab kattalarning labi va ko'zlariga qarashdan boshlanadi [24,45].

Kattalar go'daklar bilan doimo ijobiy emotsional munosabatda bo'lishlari zarur. 4-5 yoshli go'dakning munosabati o'ziga xos harakterga ega. U o'z oila a'zolarini begona kishilardan ajratadi. Kattalar doimo go'dak atrofida parvona bo'laversalar, u o'yinchoqlar bilan o'ynamaydi, balki go'dak onasidan ajrasa injiq bo'lib qoladi. 7-9 yoshli bola kattalarning nutqini va harakatini diqqat bilan kuzatadi. So'ngra u kattalarning og'zidan chiqqan so'zlarni takrorlashga harakat qiladi. Bu davrdagi bolalar kattalarning harakatlarini taqlid qilish orqali egallaydi. Masalan, stolni ustini artishga, idish-tovoqlarni ko'tarishga harakat qiladi. Kattalar

bolaning ehtiyojlarini qondiribgina qolmasdan, predmetlar bilan harakat qilishga ham o'rgatadilar, ya'ni hatti-harakatlarini boshqaradilar. Bir yoshgacha bola kattalarning nutqini tinglaydi.

O'yinchoq -ko'ngilochar predmet bo'lib qolmasdan, balki bolaning ruhiy rivojlanishi vositasidir. 2-3 yoshli bola o'yinchoqlar bilan o'ynay boshlaydi. O'yinchoqlar yorqin rangli, qo'ng'iroqli ovozli bo'lishi bolada ijobiy emotsiyani keltirib chiqaradi. Onasi bolaga o'yinchoqlar bilan qanday o'ynashni o'rgatadi. O'yinchoqlarning tovushlari bolaning kayfiyatini yanada ko'taradi, uning idrokini rivojlantiradi. Bolalarning etakchi faoliyati maktabgacha davrda o'yin bo'lib hisoblanadi. Kattalar o'yinchoqlar tilidan bola bilan muloqotda bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. O'yinchoq bilan o'ynaganda bolalar uni qimirlatishga va og'ziga solishga, ichini ochib ko'rishga harakat qiladilar. 9 oylik bolalarga endi o'yinchoqdan tashqari qog'oz, qalam ham berish kerak. SHunda bola yozma nutqning rasmlar chizish elementlarini shakllantirish mumkin bo'ladi.

O'yin orqali bolalarda sezgi, idrok, xotira, fikrlash, fantaziya kabi ruhiy jarayonlar, shuningdek, harakter hislatlari, qobiliyat turlari, temperament (mijoz) tiplari rivojlanadi. Bolalarning nutqini, muloqotini rivojlantirishda kattalar muhim rol o'ynaydilar. Chunki bolalar hali mustaqil harakat qila olmaydi, ongi yaxshi rivojlanmagan. Bolaning ongini o'stirish uchun o'yinchoqlar va o'yin turlaridan ko'proq foydalanish yaxshi natija beradi.

Ilk bolalik davrida ham o'yinning ahamiyati katta. O'yin orqali bolalarda ruhiy xususiyatlar rivojlanadi. Bu davrdagi bolalar predmetli o'yinchoqlarni ko'proq o'ynaydilar. Ayniqsa didaktik o'yinchoqlar bola hayotida muhim o'rin egallaydi. Bola endi bitta o'yinchoq bilan emas, balki bir necha o'yinchoqlar bilan o'ynaydi. Bu davrda bolalar kattalar bilan muloqotda bo'lishga nisbatan ko'proq o'yinchoqlar bilan muloqotda bo'ladilar.

Maktabgacha yoshidagi bolalar o'yinda kattalarning hatti-harakatlari, o'zaro munosabatlarini taqlid qilish orqali ifodalaydilar. Bu ularda muloqotni rivojlanishiga yordam beradi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'yin faoliyati o'ziga xos harakterga

ega. Ular ko'proq harakatli, sport harakteridagi o'yinlarni o'ynaydilar. O'yin orqali o'quvchilar bir-birlari bilan muloqotda bo'ladilar.

O'smirlarda, ayniqsa, 5-6- sinf o'quvchilarida o'yinga bo'lgan ehtiyoj saqlanib qoladi. Tanaffus paytlarida, darsdan bo'sh vaqtlarida o'smirlar o'yin faoliyati bilan ham shug'ullanadilar. Ularda o'yin orqali muloqot shakllari rivojlanadi.

Ilk bolalik davrida bolalar kattalarga qaram bo'ladilar, chunki ularning mustaqil harakat qilishlari qiyin bo'ladi. Hatti-harakat xulq normalarini bolalar kattalar orqali o'rganadilar. Bu davrda bola xulqining motivi anglanilmagan bo'ladi. Bolaning ichki dunyosi shakllanishi kattalarga bog'liqdir. Chunki bola kattalar kutgan muloqotni darhol bera olmaydi. Bola predmetlarga bo'lgan qiziqishini avvalo kattalarga murojaati orqali bildiradi. Kerakli yordamni nutqni qo'llash orqali oladi. Bu erda kattalar bolaga qanday talablar qo'yishlari muhim o'rin tutadi. Kattalar agar bola bilan kam muloqotda bo'lsalar, uning nutqi rivojlanishdan orqada qolishi mumkin. Muloqotga bo'lgan ehtiyoj bolada o'z-o'zidan rivojlanmaydi, balki predmet faoliyati bo'yicha kattalarning muloqoti orqali o'sadi [34,35].

Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanishi ikki xil yo'l orqali amalga oshiriladi: kattalar nutqini tushunishi hamda bolaning shaxsiy faol nutqi shakllanishi orqali. Bola bilan onaning muloqoti faqatgina so'zlar bilan emas, balki mimika, imo-ishora, pantomimika, ohang va vaziyat kabilar orqali amalga oshiriladi. Bo'lar harakatga signal bo'lib xizmat qiladi. 2 yoshli bolalar oldida o'yinchoqlar turgan bo'lsa onasi unga "ber menga"deb o'yinchoqni ko'rsatsa darhol bola uni olib beradi. "Mumkinmas" degan so'z bolaning harakatlarini to'xtashiga signal bo'lib xizmat qiladi. Masalan, rozetkaga qo'li tegayotganida, qizib turgan dazmolga qo'li yaqinlashayotganida, oyoq kiyimlarga qo'lini tekkazayotganida bu so'zni aytilishi bola harakatlarini to'xtashiga olib keladi.

3 yoshga to'lganda bola kattalar bilan munosabatlarga bemalol nutq orqali kirisha oladi. Bu yoshdagi bolalar hamma kiyimini o'zi kiyishga harakat qiladi. O'z ehtiyojlarini so'zlar orqali bayon qila oladi. Chunki nutqni to'la egallaydi.

Bola kattalarning ko'rsatmasiga binoan hatti - harakatlarini to'g'ri yo'naltirishga o'rganadi. U kattalarning o'zaro muloqotini jon qulog'i bilan eshitadi, tushunishga harakat qiladi. Bu davrda bolalar ertak, hikoya, she'rlarni eshitishni juda yaxshi ko'radi. Bu bolaning tashqi olamni bilishiga katta ta'sir ko'rsatadi. 1,5 yoshli bolalar 30-40 so'zdan 100 gacha bo'lgan so'zlarni egallaydi, holos. 2 yoshdan so'ng bolalar kattalarga juda ko'p savollar bilan murojaat qiladilar. "Bu nima?", "nimaga bunaqa?" kabi savollar bolaning nutqini o'sayotganidan dalolat beradi. 2 yoshni oxirigacha bola 300 ta so'zni o'rganadi. 3 yoshning oxiriga borib, 500-1500 gacha so'zni bilib oladi. Lekin bu yoshdagi bolalar nutqi avtonom bo'ladi, ular nonni "nanna", suvni "umma" kabi iboralar bilan ataydi. Asta-sekin kattalar bolalar bilan to'g'ri muloqotda bo'lsalar, bu avtonom nutq yo'qolib boradi, ya'ni bola har bir narsaning o'z nomi bilan ayta boshlaydi. Bolaning bitta aytgan so'zi uning aytmog'chi bo'lgan gapini ifodalab beradi. Masalan, "oyi" desa oyisi bolaga non berishi yoki suv olib berishi mumkin. SHu bilan bolaning ehtiyoji qondiriladi. Bolani muloqotga o'rgatish uning ruhiy jarayonlarini ham rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi. Bu davrdagi bolalar nimani xohlasa o'sha zahoti namoyon bo'lishi kerak. Lekin buni asta-sekin tarbiyalash orqali yo'qotish mumkin, ya'ni sabrli bo'lishni bolaga yoshlikdan o'rgatish lozim.

3 yoshli bolalarda birinchi "inqiroz" davri boshlanadi. Bu davrda bolalarda «hamma ishni o'zim qilaman», "men o'zim" degan tushunchalar shakllanadi. Ular qaysar, injiq bo'lib qoladilar. Ota-onalar bu yoshdagi bolalarga tarbiya berishda e'tiborliroq bo'lishlari lozim.

3 yoshdan so'ng bolalardagi krizis (inqiroz) davri sekinlashib qoladi. Bolaning kattalar bilan bo'ladigan muloqotlari normallasadi. Bola bu yoshda ota-onaning diqqat markazida bo'lmaydi, chunki uning kichik ukasi bo'lishi mumkin. Hozirgacha u kattalarning diqqat-e'tiborida bo'lgani uchun endi uning fikricha ota-onasi faqat bir-biri bilan munosabatda bo'lib, unga e'tibor bermay qo'yishyapti. Unga tushunarli bo'lmagan narsalar haqida gaplashadilar. Bu unga yoqmaydi, natijada injiq bo'lib qoladi. Haqiqatda esa bola ancha mustaqil bo'lib qolgani uchun onasi undan ko'ngli to'lib, kamroq e'tibor beradi, bu esa bolaga yoqmaydi.

SHuning uchun ota-ona bu davrdagi bolalarga e'tiborliroq bo'lishlari lozim. SHunday vaziyat ham bo'ladiki, oilada bola yo onasi bilan qoladi, yoki otasi bilan yashaydi. Ko'pincha bola balog'atga etmaganligi uchun onasi bilan yashaydi. Bunday oila noto'liq oila deyiladi. Bunday oilada o'sayotgan bola avval otasi yo'qligini his qilmaydi, lekin birdaniga his qilib, u qo'zg'aluvchan, hissiyotga beriluvchan bo'lib qoladi. Bu paytda onasi qaysidir qarindoshidan iltimos qilib, otasi o'rniga bola bilan muloqotda bo'lishlarini so'rashi zarur. Ota-onalar farzandi uchun mas'uliyatlilikni his qilishlari lozim. CHunki bola ota-onasining munosabatlarida aybdor emas. Agar bola sog'lom o'ssa, uni bolalar bog'chasiga beriladi. U erda bola yangi kishilar bilan, yangi tengdoshlari bilan yangicha munosabatlarga kirishadi.

Bu davrdagi bolalar o'yini ham o'ziga xos bo'ladi. Bolalar o'yinda turli rollarni o'ynaydilar. O'yin qoidalariga rioya qila boshlaydilar. Muloqot shakllari bola hali guruh bo'lib o'ynamasidan avval, ya'ni o'z- o'zi bilan o'ynaganidayoq shakllanadi. Bu davrda bola o'yin o'ynaganida ko'proq o'zining hatti-harakatlariga e'tibor beradi. O'zaro munosabatlar orqali bola boshqa bola bilan muloqotga kirisha boshlaydi. 4 yoshli bolalar esa ko'proq boshqa bolalar bilan muloqotda bo'lishga harakat qiladilar. Bu bosqichda bolalar bir-birlari bilan o'yinchoqlarini almashtiradilar, bir-birlariga yordam bera boshlaydilar. Hamqorlikda o'ynaladigan o'yinda bolalar bir-birlarini tushunishga, bir-birlariga yordam berishga o'rganadilar. Endi bola o'zi o'ynamasdan boshqa bolalar bilan o'ynashga harakat qiladi. O'yin o'ynaganda bolalar ko'pincha boshliq bo'lishga harakat qiladilar. Kim o'yinni tashkil qilsa u doimo boshliq bo'lgisi keladi. SHunda konflikt (nizolar) kelib chiqadi. O'yindan qoniqmagan bola "men o'ynamayman, sen bilan,"deb noroziligini bildiradi. O'yin vaziyati bolalarda nutq munosabatlarini rivojlantiradi. Kichik va o'rta maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z boyliklari o'yin faoliyati orqali ortib boradi. Mashg'ulotlar orqali bolalarda nutq rivojlanib boradi. CHunki mashg'ulotlarda bolalar she'r yodlaydilar, ertaklar eshitadilar.

O'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi munosabatlar bolalar bog'chasida o'ziga xos xususiyatga ega. Bolalar bog'chasi bola uchun faqatgina tashqi olamni bilish,

dunyoni hissiy baholash emas, balki o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lish imkoniyatini beradigan joydir. Ayniqsa o'g'il bolalar bilan qiz bolalar o'rtasidagi munosabatlar o'ziga xos tarzda amalga oshadi. Bog'chada bolalar jamoasi shakllanadi. Ilk bolalik davrida bola o'g'il bola bilan qiz bolani ajrata olmaydi. O'rta maktabgacha yoshdagi bolalar esa ajrata boshlaydilar. Kattalar bolaga o'g'il bola qanday bo'lishi kerakligi, qiz bola qanday bo'lishi kerakligi haqida tushuntiradilar. Masalan, o'g'il bola yig'lasa "yig'lama, sen erkak bo'lishing kerak", "qiz bolamisan?"deb, qizlarga esa "daraxtga tirmashma, sen qiz bolasan" kabi iboralar bilan tushuntiriladi. Bundan tashqari bolalar katta erkak va ayollar xulq - atvorlariga qarab ham o'zlarini qanday tutishni o'rganadilar. O'yin faoliyatlarida erkak va ayollarga xos xususiyatlarni namoyon qiladilar. Demak, bu davrdagi bolalarda muloqotning shakllanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularda muloqotni rivojlantirish tarbiyachilarning mahoratiga bog'liq, ya'ni mashg'ulotlarning to'g'ri tashkil qilinishi muhimdir.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar endi o'zlari mustaqil harakat qila oladilar. O'zlari yuvinadilar, qiyinadilar. Lekin baribir ular ota-onalarining erkalashlariga, diqqat-e'tiborida bo'lishga harakat qiladilar. Ota-onalar bola tarbiyasida quyidagi usullardan foydalanadilar:

1. Avtoritar uslub - boshqarish qattiqqo'llik asosida olib boriladi. Boladagi tashabbus ota-onalar tomonidan ta'qiqlanadi. Har bir hatti-harakati albatta jazolanadi. Bu usul orqali tarbiyalangan bolalar qo'rqqoq, jur'atsiz bo'lib qoladilar, o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqara olmaydilar. Chunki ota-ona unga sharoit yaratib bermaydi.

2. Liberal uslub - bu usulda ota-ona farzandiga befarq bo'ladi, u nimaga qiziqadi, nimaga layoqati borligiga qiziqmaydi. Bola nima yomon, nima yaxshiligini bila olmaydi. Natijada bolalar mustaqil va faol harakat qila olmaydilar.

3. Demokratik uslub - tarbiyaning mahsuldor usuli bo'lib, unda ota-ona farzandiga bor mehrini berib, uning qiziqishlari, imkoniyatlari bilan hisoblashadi. Bolaning erkin fikrlashini istaydi. Bu usul bolani to'g'ri tarbiyalash imkonini

beradi.

Ayrim oilalarda bola yolg'iz farzand bo'lgani uchun ota-ona unga barcha mehrlarini berib, uni erkalatib, xudbin qilib qo'yishlari mumkin. Yoki bola ukalari tug'ilganda ham o'zini yomon his qiladi. Chunki ota-ona endi kichik farzandiga ko'proq e'tibor beradi. Bunday holatlarda kattalar bolaga u endi mustaqil ish qila olishi, aqlliligini tushuntirsalar, shunda u kichik ukalariga nisbatan mehrlil bo'ladi.

Tarbiyachi guruhga uyda tarbiyalangan yangi bola kelib qushilganida boshqa bolalarga u bilan iliq munosabatda bo'lishlarini tushuntirishi lozim. Unga ko'proq e'tibor berish, yaxshi muomalada bo'lish kerak, shunda bola yangi muhitga tezroq ko'nikadi. Agar tarbiyachi yangi kelgan bolalarga mashg'ulotlar davomida yaxshi muloqotda bo'lsa, qolgan bolalar undan o'rganadilar. Tarbiyachi bolalar bilan do'st sifatida munosabatda bo'lsa, bunday guruh uyushgan bo'ladi, bir-birlari bilan iliq munosabatda bo'lishni o'rganadilar.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faoliyati orqali irodaviy sifatlari shakllanadi. O'yinda bolaning emotsional rag'batlantirilishi yaxshi natija beradi. O'yin faoliyati bolalarning bir-birlari bilan muloqotda bo'lishlarini ta'minlaydi. Ayniqsa, rolli o'yinlar orqali bolalarning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini aniqlash mumkin bo'ladi. Shuningdek, o'yin orqali bolalarda boshqalarga nisbatan g'amxo'rlik, to'g'ri munosabatda bo'lish, ehtiyojlarini qondirish amalga oshiriladi. O'yin faoliyatida bolalar o'yin qoidasiga rioya qiladilar, "onasi unday qilmaydi", "doktor bunday ukol qilmaydi" kabi fikrlari bilan bir-birlarini harakatlarini to'g'rilab turadilar. O'yin bolaning kattalar hayotini to'g'ri tushunishlariga yordam beradi. Muloqotga bo'lgan ehtiyoj o'yinda qondiriladi. O'yin qoidasini buzganda bola samimiylik bilan "endi bunday qilmayman" deydi. Demak, o'yin bolani samimiylikka, his-tuyg'ularini tarbiyalashga, boshqalarga yaxshilik qilishga, to'g'ri muloqotda bo'lishga o'rgatadi. O'yin qoidasini buzadigan bolalar oxiri yakkalanib qoladilar, qolgan bolalar uni yoqtirmaydilar, u bilan o'ynagilari kelmaydi, hatto u bilan muloqotda bo'lishni ham istashmaydi. O'yinni musobaqa tarzida tashkil qilishda tarbiyachi

ehtiyotkor bo'lishi lozim. Chunki o'yinda yutqazgan bolalarda yutgan bolalarga nisbatan adovat tug'ilishi mumkin. O'yindan so'ng ular nizolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi hali yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Ular "u yig'layapti", "u yiqildi" kabi 3 - shaxs birligini qo'llash orqali og'zaki fikrini bayon etadilar. Maktab yoshiga etgandagina bu holat yo'qoladi. Bolalarning nutqi hali tarbiyalanmagan bo'lgani uchun ular tarbiyachining fikrini oxirigacha eshitgilari kelmaydi. Ular o'yin qoidasini eshitmasdan tezroq o'ynagilari keladi. Bolalarga egotsentrik (o'ziga qaratilgan) nutq xos bo'ladi.

Bola bu davrda ham o'yinga bo'lgan ehtiyojini qondirishga harakat qiladi. U yangi o'yinchoqqa nisbatan "eski" o'zining doim o'ynaydigan o'yinchog'i bilan o'ynashni yaxshi ko'radi. qo'g'irchoq- sadoqat va refleksiyaning shakllanishida ajoyib vosita. Bolaning qo'girchoq'i bilan bo'ladigan muloqoti uning kattalar bilan bo'ladigan muloqotiga taqlid qilishidir. qiz bolalar ko'proq qo'g'irchoqlar, idish-tovoqlar (o'yinchoq) bilan muloqotda bo'lsalar, o'g'il bolalar esa turli o'yinchoqlar (samolyot, koptoq, to'pponcha, mashina, velosiped) bilan muloqotda bo'ladilar. Qiz bolalar o'g'il bola qo'g'irchoq o'ynasa uning ustidan kuladilar, tanbeh beradilar. Demak, bolalar jinsga qarab o'yinchoqlarni tanlaydilar. Maktab yoshiga etganda ham bolalar o'zlarining sevgan o'yinchoqlaridan voz kechmaydilar.

Bolalar nutqining o'sishida ularning maktabda o'qishi katta rol o'ynaydi. Bola maktabgacha yoshda o'ylamasdan gapiradi, maktabda esa bola gaplashayotgan til o'qitiladigan va o'rganiladigan ilm bo'lib qoladi. Grammatikani o'qib o'rganish jarayonida bola nutqining fonetik jihati to'g'ri bo'lib boradi, nutqning sintaksis tuzilishi takomillashadi. Maktabda o'qitilayotgan hamma fanlarni o'rganish jarayonida o'quvchi nutqining lug'ati boyiydi, so'zlarning mazmuni chuqurlashadi va kengayadi. Bolalarning yozma nutqni egallashlari ular nutqining o'sishida muhim bosqich bo'ladi. Bola o'z fikrlarini yozma nutqda bayon qilishga harakat qiladi. O'quvchi o'qituvchining topshirig'iga binoan yozma ishlar bajarayotganda o'zining shu ishiga baho berilishini, o'z fikrining qanday til bilan bayon qilinganiga qarab baho berilishini oldindan bilib turadi. O'quvchi

maktabda berilgan topshiriqni tayyorlash vaqtida shu topshiriqni o'ziga - o'zi gapirib berishni mashq qilib turishi o'quvchi nutqining o'sishiga katta ta'sir qiladi. Bolalar nutqining o'sishida o'qituvchining nutqi katta rol o'ynaydi, chunki uning nutqi o'quvchilar uchun namunali nutq hisoblanadi. SHuning uchun o'qituvchi o'z nutqini takomillashtirish ustida ishlashi kerak. Maktabda bolalarda eng avvalo faol ishlatiladigan so'zlarning miqdori oshadi. YOzma nutqni, o'qish va yozishni o'zlashtirish o'quvchi hayotida hosil qilingan malaka hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar tovushlarni bir-biriga qushish orqali so'z tuzish malakasini egallab olgach, ba'zida matn mazmunini noto'g'ri tushunadilar. Unga o'quvchilarning so'z boyligining kamligi yoki asosiy fikrni ajrata bilmasligi sabab bo'ladi. SHu munosabat bilan o'qituvchi oldida bolalarda lug'at boyligini oshirish va ularni o'qigan narsalari yuzasidan mustaqil reja tuzishga barvaqtroq o'rgatish vazifasi turadi. YOzuv darolarida bola harf va so'zlarni yozishda katta qiyinchilikka duch keladi. Dastlab bola bo'tun e'tiborini yozish texnikasiga va o'tirish qoidasiga rioya qilishga qaratadi. Avval bolaning yozma nutqi uning og'zaki nutqi orqali belgilanadi, ya'ni u so'zni qanday talaffuz etsa shunday yozadi. Bu davrda bola bilan ovoz chiqarib aytish bo'yicha muntazam mashqlar o'tkazish uning imlo qoidalarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishida katta ahamiyatga ega. YOzma nutqda imo-ishora, ohangdan foydanilmaydi, bolalarning yozma nutqlari ularning og'zaki nutqiga qaraganda ancha bo'sh bo'ladi. Bolalar nutqi kattalar nutqi ta'sirida o'sadi. SHuning uchun pedagoglar bolalarga kichik maktab yoshidan boshlab og'zaki va yozma nutqni o'stirish bilan birga nutq madaniyatini ham o'rgatib borishlari zarur.

O'quvchilar tafakkurini o'stirmay turib, ularning nutqini o'stirib bo'lmaydi. Og'zaki gapirish, bayon yoki insho yozishda o'quvchilarning reja tuzib olishlariga e'tibor berish kerak. YOzma va og'zaki nutqni o'stirish uchun kitob ustida muntazam ishlash, o'qigan matnlarning tezisini, konspektini tuzish, ma'ruza, referatlar tayyorlash, adabiy kechalar, yozuvchilar bilan uchrashish muhim ahamiyatga ega. Nutq shartli refleklar paydo bo'lishining umumiy qonunlari asosida o'sadi. Agar kishi biror bir tovushni noto'g'ri talaffuz qilishga o'rganib

qolgan bo'lsa, unda bu kamchiliklarni tugatish qiyin bo'ladi. SHuning uchun bolalarda yoshligidanoq ijobiy nutq odatlarini tarbiyalashga ahamiyat berish zarur.

O'smirlar muloqotiga nisbatan o'spirinlar muloqoti ancha tarbiyalangan bo'ladi. CHunki ular muloqot madaniyati, muomala sirlarini egallagan bo'ladilar.

Bizning yuksak ma'naviy ehtiyojlarimizdan biri-bu muloqotga bo'lgan ehtiyoj. Muloqotga bo'lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. SHuning uchun biz doimo muloqotga bo'lgan ehtiyojimizni qondirishimiz lozim. Kimlar bilandir muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, ba'zi hollarda esa biz qoniqmaslikni his qilamiz. Katta yoshdagi kishilar rasmiy va norasmiy munosabatlarga kirishadilar. Rasmiy munosabatlar ish, xizmat yuzasidan bo'ladi. Norasmiy muloqot esa ishdan boshqa paytlarda, o'yda (oila), mahallada, ko'cha - ko'ylarda bo'ladi.

Kattalar muloqotida ko'pincha muloqot madaniyati amalga oshiriladi, ya'ni bir-birlarini hurmat qilish, ishonish, anglash kabilar. Ammo ba'zi paytlarda muloqot buzilishi ham mumkin. CHunki kattalar ayrim paytlarda bir-birlarini tushunmasdan xafa qilib qo'yishlari, ko'ngilga og'ir botadigan gaplar aytib yuborishlari, natijada nizolarni keltirib chiqarishlari mumkin. Agar muloqot madaniyati kishilarda yaxshi shakllangan bo'lsa, ular bir-birlarini tushunishlari oson ro'y beradi. Muloqot madaniyati yoshlikdan oilada, ijtimoiy muhit ta'sirida, o'z-o'zini anglash, tarbiyalash oqibatida shakllanishi mumkin. Biz kattalar yoshlarga namuna, ibrat bo'lishimiz bir-birimizga bo'lgan muloqotimizdan kelib chiqadi. "Oltin so'zlar "(azizim, aylanay, o'rgilay, juda ham ajoyibsiz, bugun boshqachasiz, ochilib ketibsiz, kiyimingiz juda yarashibdi kabi) dan kundalik hayotimizda ko'proq foydalanishimiz zarur. Kattalar muloqotiga yoshlar taqlid qilishlari orqali ularda muomala san'ati, madaniyati shakllanib boradi. Ayniqsa, oilada biz bu holatlarga e'tibor berishimiz kerak. CHunki "qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bejiz emas.

Kattalar ham bir-birlariga verbal, noverbal va paralingvistik ta'sir ko'rsatadilar. Biz vaqti kelganda imo-ishora, mimika, pauzalar orqali ham bir-

birimizga ta'sir eta olamiz. Bir og'iz so'z bilan ham xursand, yoki xafa qila olamiz. SHuning uchun doimo kattalar bir-birlariga samimiy munosabatda bo'lib, ta'sir qilishlari lozim.

Kattalar muloqoti ma'lum bir yoshlarda o'ziga xos bo'ladi. Masalan, kattalar ma'lumotlariga, yoshlariga, jinslariga, kasblariga qarab muloqotda bo'ladilar. Keksalar muloqoti o'ziga xosdir. Ular xuddi kichik bolalardek izzat-talab, injiq, e'tibor talab bo'lib qoladilar. Keksalarga ehtiyotkor bo'lib muomalada bo'lish zarur, chunki ko'ngillari nozik bo'ladi. Ularga ko'ngillarini ko'taradigan so'zlarni ko'proq qo'llash zarur.

Demak, har bir yoshga kiradigan kishilar, shu jumladan, kattalar ham o'ziga xos muloqotga kirishadilar. Muloqot har bir davrga xos holda amalga oshiriladi.

1.2.Farzandlar bilan muloqotni tashkil qilishda milliy –ma'naviy merosning o'rni.

Prezidentimiz I.A.Karimov alohida ta'kidlab o'tganlaridek, "SHarqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mehru-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan".

Darhaqiqat, SHarqning buyuk allomalari va ma'rifatparvarlari hisoblangan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, YUsuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxruddin, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy, Fitrat va boshqalarning asarlarida Markaziy osiyoda yashab kelayotgan xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining oilaviy hayoti, undagi o'zaro munosabatlarning (ayniqsa er-xotin) milliy psixologik xususiyatlari, er-xotinning burch va vazifalari, oilaning turmush tarzi va tarbiyaviy muhiti va boshqalar haqida qimmatli fikrlar mavjud.

Oilaviy turmush va undagi shaxslararo munosabatlar madaniyatiga xos masalalar buyuk muhaddis allomalar Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, At-Termiziy ijodlarida

hamda tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari bo'lmish Ahmad YAssaviy, Baxovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro tariqatlarida ham keng yoritilgandir.

SHarq mutafakkirlarining ilmiy-madaniy merosini o'rganar ekanmiz, ularda bayon qilingan oilaviy turmush qoidalari, undagi shaxslararo munosabatlar madaniyati, farzand kamoloti, erkak bilan ayol munosabati, insoniy fazilatlarining shakllanishi haqidagi qimmatli fikrlar sharq xalqlari, xususan, o'zbek xalqining og'zaki ijodi, eposining (o'zbek xalq maqollari, ertaklari, dostonlari, afsonalari, rivoyatlari) uzviyligi asosida tarkib topgan ilmiy-madaniy meros ekanligini ko'ramiz.

CHunonchi, o'zbek xalqining og'zaki ijodi va eposlarida mardlik, halollik, kamtarlik, ishonch, sevgiga-sadoqat, do'stlik, adolatlilik, mehnatsevarlik, hamfikrlilik, orastalik, go'zallik, oqillik, e'tiqod, hurmat-ehтиrom, oila sha'ni va g'ururini himoya qilish, tug'ilgan joyiga muhabbat, ezgulikka intilish, halol va pok yashash ulug'langan. Bu voqelikni biz Alpomish, Kuntug'mish, Go'ro'g'li, Oysuluv, Layli va Majnun, YUsuf va Zulayho kabi qator o'zbek xalq dostonlarining qahramonlari misolida ko'rishimiz mumkin.

"Qadimiy eposlarda ayollar bilan erkaklar teng ijtimoiy mavqega ega shaxslar sifatida gavdalanadi, ayollar erlaridan qolishmaydigan jasoratli qilib tasvirlangan".

Sevib turmush qurish, sevgida vafodorlik, oilaviy totuvlik kabi insoniy xislatlar o'rta Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek urug'lari va elatlarining xarakterli xususiyati sifatida saqlanib qolgan.

Ma'lumki, muqaddas dinimiz islomda, uning asosiy manbalari hisoblangan "Qur'oni Karim" va Hadislarda ham oilaviy turmushning va er-xotin munosabatlarining barcha tomonlari haqida qimmatli ma'lumotlar va shar'iy qonunlar yoritilgan. Islomda bo'lajak oilaning vujudga kelishiga alohida e'tibor berilgan. SHariat bo'yicha nikohdan o'tishda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim bo'lgan. 1.Nikohlanuvchi-larning o'zaro roziligi. 2.Nikoh yoshiga to'lish. 3.Nikohni guvohlar ishtirokida tuzish. 4.Kelin uchun qalin va mahr to'lash. 5.

Diniy e'tiqod birligi. 6.Nikohlanuvchilar yaqin qarindosh bo'lmasligi. 7.Tabaqa bo'yicha tenglik. 8.Nikohdan o'tuvchilarning ruhiy jihatdan sog'lom bo'lishi. Bu shartlarga rioya qilinib tuzilgan nikohgina qonuniy hisoblanib, taraflarni tegishli huquq va majburiyatlar bilan ta'minlagan.

Qur'oni Karimning oyatida oiladagi er bilan xotinning o'rni belgilab berilgan. SHariat hukmicha, er avvalo oilaning barcha moliyaviy va ma'naviy taraflariga javobgar, uni chetdan bo'ladigan har qanday xurujlardan himoya qiladigan shaxsdir. Mana shularning evaziga va erkak kishi uchun fazilat hisoblanmish og'ir-bosiqlik, oila ro'zg'or tebratishdagi tadbirkorlik kabi sifatlar mavjudligi sababli u oilaning boshlig'i sanaladi. YAxshi xotin esa diyonatli, erning uyini obod qiladigan va unga bir umr sadoqatli bo'lgan ayoldir. Qur'oni Karimdan er-xotin yoxud oilaviy munosabatlarga xos ibratli misollarni ko'plab keltirish mumkin. Hatto ajdodlarimizning muqaddas dini hisoblangan zardushtiylikda ham nikoh va oilaviy burch masalasi muhim axloqiy o'rinda turgan. Zardushtiylikda ko'p xotinlilik qat'iy man etilgan. Ayni paytda hayotni bo'ydoq o'tkazish ham qoralangan. Balog'atga etgan qiz ota-ona va jamoaning ra'yini pisand qilmay, qasddan turmushga chiqmay yursa, u qopga solinib, 25 darra kaltaklanish bilan jazolangan. Agar erkak kishi shu yo'lni tutsa, unga tamg'a bosilib badnom qilish maqsadida beliga zanjir bog'lab yurishga majbur etilgan. "Avesto"da qayd qilinishicha, erkak avvalo uylanish uchun moddiy va ma'naviy tomondan to'q va baquvvat bo'lmog'i lozim edi. Bundan tashqari, mazkur muqaddas kitobda oila qurish, jufti halol tanlashda shoshma shosharlikka yo'l qo'ymaslik, ota-ona, keksalar maslahatiga quloq solish xususida ham diqqatga sazovor mulohazalar mavjud. SHuningdek, unda nikoh va taloqning (ajrashishning) o'ziga xos mezonlari birma-bir keltirib o'tilgan.

Zardushtiylikning axloq me'yorlari majmuida ayollar masalasiga ham alohida o'rin berilgan. Zardushtiylikda oila muqaddas sanalgani uchun boshqa sabablarga ko'ra, jumladan, ig'vo, tuhmat, er-xotinning o'zaro kelishmovchiligiga, ota ona bilan chiqisha olmaslik bahonasi bilan nikohni bekor qilinishiga yo'l qo'yilmagan.

Umuman Zardushtiylikda ham, Islomda ham nikohda ikki tomon teng va munosib bo'lishi aytib o'tilgan. Nikoh tartiblari va hayotiy tajribalariga ko'ra, kelin va kuyov nasl nasabda, ijtimoiy mavqeda, bilim-saviyada, did-farosatda, ilm-e'tiqodda, mulkdorlikda bir-birlariga yaqin bo'lishi ma'qul topilgan. SHu bois, SHarq xalqlarida yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash, ularning tengini topib uylantirishga jiddiy e'tibor berilgan. Ayniqsa, qizlarni oilaviy turmushga tayyorlashda, ularda birinchi navbatda insoniy fazilatlar shakllangan bo'lishi, oilaning muqaddas ekanligi, uni avaylab-asrash aynan uy bekalariga bog'liqligi haqida ajdodlarimizdan bizgacha etib kelgan nasihatnoma, pandnoma va hikmatnomalarda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan qimmatli nasihatlar hikoya qilinadi [18,68].

Turk olimi YUsuf Tovasliy to'plagan "Hikmatlar xazinasi"dagi kelin bo'luvchi qizga beriladigan ona nasihati kishining e'tiborini o'ziga tortadi. Unda ona turmushga chiqayotgan qiziga quyidagilarni nasihat qiladi: "Bolajonim, sevikli qizim, meni yaxshilab tingla. Nasihat har kimga lozimdir, o'git hammaga zarurdir. Nasihat bilmaganga o'rgatadi, bilganni esiga soladi. Olloh bergan qonunga ko'ra, hayotga qadam qo'yadigan har bir qiz erga, har bir erkak ayolga muhtoj bo'ladi. Erkaklar ayol uchun, ayollar erkak uchun yaratilgandir. Hayot mavjud ekan, bu qonunni hech kim buza olmaydi". SHu sababli sen tug'ilib o'sgan va voyaga etgan uyingdan, yayrab-yashnab, o'ynab-kulib yurgan eringdan chiqib, o'zing bilmaydigan, notanish uyga borasan. Kelajakda bu uy senikidir. Sen eringga shunday xizmat qilki, ul ham senga qul bo'lsin. Sen unga er bo'lki, u senga osmon bo'lsin ! Aytganlarimga amal qilsang ering bilan go'zal hayot kechirasizlar, mas'ud, baxtiyor va saodatli turmush ko'rasizlar. Bizlar ham (har ikki oila bizning ham, eringning ham oilasi) huzur-halovatda va baxtiyor bo'lamiz. Aks holda ikki oilada ham huzur-halovat bo'lmaydi. Sen o'zing bir jahannamda yashagandek bo'lasan.

Qizim! Endi senga aytadigan o'n o'gitinga quloq sol! Bo'larni doimo yodingda tut;

1.Qanoat sohibasi bo'l. O'z xolingga shukur qil. YA'ni, ering uyga nimaiki olib kelsa, u xoh eydigan, xoh kiyadigan narsa bo'lsin, xushfe'llik bilan, go'zal odob bilan qabul qilib ol! Eringga tashakkur aytib, xushnudlik ko'rsat. Zero, baxtli hayot kechirmoqning bir yo'li o'z holiga shukur etmoqlikdir, holiga shukur etmagan o'z nafsini tiymagan kishida ko'ngil huzuri, qalb rohati bo'lmaydi.

2.Eringga itoat qil, qil degan ishlarini qil, qilma deganini qilma! YA'ni, ering bilan suhbatlashganda, muloqotda bo'lganingda itoatli bo'lishingni, uning so'zlarini odob bilan tinglab ado etishingni sening so'zlashib, quloq solishingdan tushunib oladigan bo'lsin. SHunda Alloh Taolo sendan xushnud va uyingiz saodat nuridan porloq bo'ladi.

3.Eringning ko'zi tushadigan joylarga yaxshi e'tibor ber!. YA'ni, uyning ichini, tashqarisini nihoyatda toza tut, shunday qilki, eringning ko'ziga bir chirkin er ko'rinmasin.

4.Ust-boshingni toza tut. Ering faqat xushbo'yni sezsin, dimog'iga yomon hid kelmasin. CHunki yomon hidlar ering ko'z o'ngida sening obro'yingni tushiradi. Sendan irkanishga sabab bo'ladi. SHuni yaxshi bilgilki, tozalik va zariflik eng yaxshi narsalardir, inson ko'ziga xush ko'rinishlik shular bilandir.

5.Ovqatni vaqtida tayyorla. YA'ni ovqatlanish vaqtini hech qachon kechiktirma. Ering qachon ovqatlanishga o'rgangan bo'lsa, o'sha paytda ovqatini tayyorlagin. U kelishi bilan darhol dasturxon sol. SHuni yaxshi bilginki, ochlik insonning tez jahlini keltiradi.

6.Uyqu vaqtini, uyg'onish paytini yaxshi bilib ol! YA'ni, uning qachon uyquga yotish payti bo'lsa, o'rnini tayyorlab qo'y. Zero, uyqusizlik insonni xafaqon etadi. Asablarning buzilishi, xafaqonlik odamlarning ehtirosi, muhabbatini sekin-sekin so'ndiradi.

7.Eringni moli va ashyosiga juda e'tiborli bo'l! YA'ni, eringning mol dunyosini yaxshi saqla, ashyolarini avayla, muhofaza qilgil. CHunki uning mol-dunyosi senikidir. Eringni mol dunyosini isrof etmaslik ish bilish va qadriga etish demakdir.

8.Eringni qarindosh va yaqinlariga hurmat ko'rsat! YA'ni, eringni qarindoshlari va yaqinlariga hurmat - uning e'tiborini qozonmoq demakdir. Ularni hurmat qilish - eringni hurmat qilish demakdir. Bu esa qadr va e'tibor qozonishdir.

9.Eringning sirini boshqalarga aytma! YA'ni, eringning ba'zi sirlarini bilgan vaqtingda ehtiyot bo'lib, uni saqla, birovlariga aytib yurma. Agar aytib qo'ysang, uning g'azabini keltirib qo'yasan, ishonchini yo'qotasan. Bunda tuzayotgan oilangiz buziladi.

10.Eringni diniga to'g'ri keladigan barcha buyruqlarini ado qil! Hech qachon unga nisbatan itoatsiz bir harakat bo'lmasin. Agar bir shunday harakat bo'lsa, senga kin saqlab, oxiri dushman bo'ladi. U senga dushmanlik yo'lini tutsa, sen ko'p zarar ko'rasan va qo'lingdan hech narsa kelmaydi.

Ko'rinib turibdiki, xalq og'zaki ijodi va diniy g'oyalar hamda hikmatnomalar og'zaki tarzda avlodan-avlodga ko'chib sayqallashgan holda saqlanib kelgan bo'lsa, xalqimiz orasidan etishib chiqqan donishmand va allomalar esa ana shunday qimmatli ma'lumotlarni xalq an'analari va qadriyatlariga tayangan holda o'z asarlarida yoritgan holda ilmiy-madaniy meros sifatida kelgusi avlodlar uchun qoldirganlar. Ulardan biri - jahon ilm-fani hazinasiga munosib hissa qo'shgan mutafakkir olim Abu Nasr Forobiydir.

Abu Nasr Forobiy (873-950) jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini va inson kamoloti bosqichlarini, insonlar yashash jarayonida baxt-saodatga erishuv yo'llarini o'zining mashhur asari "Fozil odamlar shahri"da bayon etadi. Forobiy oqil insonlar haqida gapirib, "Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, yomon ishlardan o'zlarini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar" degan edi. Alloma oqillar bor joyda hech qachon muammolar va kelishmovchiliklar bo'lmasligiga ishora qiladi. Uning g'oyalarida oilaning to'liqligi, unda qaror topgan sog'lom ma'naviy muhitning ahamiyatini aks ettiradigan fikrlar ham mavjud. "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi. U bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir

butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi" yoki "odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir. Haqiqiy baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar (bizningcha, oila) fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi (bizningcha, oila jamoasi) fazilatli jamoadir".

Forobiy keraksiz urf-odatlardan (hozir ham oilaviy hayotda, er-xotin munosabatlarida uchraydi) voz kechish, baxt saodatga erishish yo'llari haqida gapirib shunday deydi: Rahbarlar (er yoki xotin) "yomon odatlarni o'zida ifodalovchi o'tmishni ham o'zgartirmog'i kerak. Aks holda o'tmishni talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday engillik, o'zgarish va o'sish ham bo'lmaydi". YOki "Baxt saodatga erishuv yo'lida nimaiki (bilim, axloq, kasb-hunar) yordam bersa, uni saqlamoq, mustahkamlamoq nimaiki zararli bo'lsa, uni foydali narsaga aylantirishga harakat qilmoq zarur".

Biz tadqiqotlarimizda o'rganadigan muammo nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, Forobiyning inson kamoloti, uning jamiyatdagi, oiladagi o'rni, yoshlarning voyaga etishiga ta'siri to'g'risidagi fikrlari, insonlar jamoasidagi o'zaro hamjihatlik, yordam haqidagi hikmatlari hozirgi oilaviy turmush masalalarini echishda, undagi munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishda farovon turmush kechirish uchun dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o'z ijtimoiy qarashlarini aks ettirgan yaxlit ijtimoiy ta'limot yaratmagan bo'lsa-da, lekin u ijtimoiy masalalar bo'yicha o'zining nuqtai nazarini ko'pgina qomusiy asarlarida izhor etishga yoki ular yuzasidan tanqidiy fikrlar aytishga harakat qilgan. Abu Rayhon Beruniyning muayyan qarashlari oilaviy turmush, oila va nikoh, oilaviy qadriyatlar va uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlariga xosdir. Bunday ishoralarni Beruniy hikmatlarida ham uchratamiz. "YAxshi xulq yaxshilik alomatidir"."Buzuq niyatli va yomon axloqli kishilar o'rtaga kirib olishi bilan ish to'g'ri bo'lmaydi". "Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldamchi ehtiroslar, g'am-g'ussa bo'lmaydi oilaviy munosabatlarda ana shunday hikmatlarga amal qilishimiz maqsadga muvofiqdir.

Beruniy o'rta Osiyo, Qadimgi YUnon va Hind xalqlari hayotini yaxshi bilgani uchun ular amal qiladigan urf-odatlar, qadriyatlar va milliy madaniyatlarining o'ziga xos tomonlarini taqqoslab tahlil qiladi. Ushbu tahlillar oila-nikoh, oiladagi o'zaro munosabatlarga ham xosdir. Jumladan, u oilalarning "poligamiya" (erkak yoki ayol bir paytning o'zida bittadan ortik er yoki xotinga ega bo'lishiga yo'l qo'yiladigan nikoh shaklini bildiradi) turi haqida ham qimmatli ma'lumotlarni keltiradi. Masalan, Janubiy Hindiston madaniyatida tud erkaklari biologik nuqtai nazardan otalikni o'rnatish bilan qiziqmaganlar. Ularda bolaga otalik rasmini amalga oshirish chog'ida o'qli kamonni homilador ayolga tantanali suratda bergan erkak bolaning otasi hisoblangan. Agar keyinchalik boshqa bir erkak bolaga otalik qilishni xohlab qolsa, bu rasm ayolning navbatdagi homiladorligida takrorlangan. Bu ma'lumotlar izlanuvchilarda ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davomida oilaviy turmushning takomillashuvi, oila-nikoh munosabatlarning barqarorlashuvi va monogamiya oila turining kelib chiqishi tarixi haqida ilmiy tasavvurlar shakllanishiga yordam beradi.

Beruniy qarashlarida oilaviy munosabatlar barqarorligining etakchi omillari oqillik va mehnatsevarlikning ahamiyati haqida ham qimmatli fikrlar mavjud. "Muayyan vazifalarni bajarish zaruriyati inson faoliyatining bir umrga yashash qoidasidir. Insonning qadr-qimmati o'z vazifasini a'lo darajada bajarishidan, shuning uchun ham insonning eng asosiy vazifasi va o'rni mehnat bilan belgilanadi. Zero, inson o'z hohishiga mehnat tufayli erishgan" [16,138].

Ushbu muammoga oid mulohazalar Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) "Donishnoma", "Risoi ishq", "Tib qonunlari", "Uy xo'jaligi" kabi qator asarlari Markaziy Osiyo xalqlari axloq-odobi, tarbiya psixologiyasi, falsafa va tabobat olamida alohida o'rin tutadi. Ibn Sino oilaviy munosabatlarning turli va muhim tomonlarini yoritir ekan, avvalo oila boshlig'i erning oldidagi mas'uliyatli vazifalarga e'tiborini qaratadi. Uning fikricha, birinchi navbatda er oiladagi tarbiyaviy ishlarga doir ham nazariy, ham amaliy ma'lumotlarga ega bo'lishi shart. SHundagina, u haqiqiy oila boshlig'i bo'la oladi. Er-xotin munosabati tenglik hamjihatlik va o'zaro hurmat asosida qurilishi haqida to'xtalib, "Erkak kishi oila

boshlig'idir, u oilaning barcha ehtiyojlarini qondirmog'i lozim, chunki bu uning birlamchi vazifasidir. Ayol esa erkakni yaxshi, munosib yo'ldoshi va bola tarbiyasi borasida eng yaxshi voris va yordamchisidir" deb yozadi Ibn Sino.

Ibn Sino oilaviy munosabatlar maromi oiladagi tinch totuvlik, mehr-muruvvat, oila g'ururi va sha'ni ko'p jihatdan ayollarga ham bog'liq ekanligi haqida ko'p yozgan. Jumladan, "Oila xo'jaligi" asarida ayollar axloqan eng maqbul, yuqori insoniy fazilatlarga ega bo'lmoqlari lozim, deb yozadi. Mazkur asarning "Ayollarning yaxshi fazilatlari haqida" nomli bo'limida ularning quyidagi fazilatlari bayon qilinadi; ayol aqlan dono, uyatchan, iboli, iffatli bo'lib, ko'p gapirmasligi lozim; u eriga bo'ysunmog'i, uni sevmog'i, farzandlar tug'ib, doimo halol, pok, to'g'ri so'z, kamtar bo'lishi kerak; injiq bo'lmasligi, o'z iffat va obro'sini to'kmasligi lozim; u hech qachon eriga nisbatan dimog'dorlik, viqor hissini ko'rsatmasligi, o'z ishlarini yaxshi, o'z vaqtida bajarib, oilaning moddiy boyliklarini tejamkorlik bilan ishlatmog'i lozim; o'z xulq-atvori bilan o'z erining qalbida hadiksirash hissiga o'rin qoldirmasligi kerak ("Ibn Sino va tadbiri manzil".

Mutafakkir olimning sog'liqni saqlashga doir risolalarida jinsiy aloqalarning me'yorlari, unga qat'iy amal qilish, jinsiy aloqalarda o'zgarishning sabablari, ularni yo'lga qo'yish tadbirlari haqida ham qimmatli ko'rsatmalar berilgan. Uning fikricha, er-xotin ularni yodda tutishi va unga amal qilishi oilaviy munosabatlar barqarorligiga ijobiy ta'sir etadi. SHuningdek, Ibn Sino "kitob ush-shifo" asarida oila inqirozi va buzilishiga sabab bo'ladigan omillarni ham ko'rsatib o'tgan.

Bularga: 1. Agarda er va xotinlikdan dunyoga farzand kelmagan bo'lsa.

2. Agarda xotin eriga hiyonat qilib, uning e'tiborini pasaytirsan.

3. Xotin kishi tarbiyasiz bo'lsa-yu, tarbiya olishni istamasan.

4. Er va xotin bir-birlariga yoqmaydigan xarakterli bo'lsa.

Ko'rinib turibdiki, Ibn Sino asarlarida oila-nikoh va oilaviy turmushda er-xotin munosabatlarini ibratli misollar asosida yoritgan hamda ayollar mavqei undagi munosabatlarda muhim o'rin tutishini asoslab bergan [17,102].

Kaykovus qalamiga mansub Qobusnoma asari (1082-1083 yillarda yozilgan) SHarq xalqlari orasida ma'lum va mashhurdir. Qobusnomada qator ibratli va

hayotiy pand nasihatlar bilan birgalikda "ishq va uning odatlari zikrida", "xotin olmoq zikrida" ham qimmatli ma'lumotlar berilgan. "Ey farzand, to kishining ta'bi latif bo'lmaguncha oshiq bo'lmag'usidir, nedinkim ishq beshak ta'bi latiflikdan paydo bo'lur. Har narsaki ta'bi latiflikdan paydo bo'lsa, ul beshak latif bo'lur". Bu erda insonning qalbi toza, pok va axloqan yuksak bo'lsa, uning ko'ngli, sifat va fazilatlari ham, hissiy kechinmalari ham sof va chiroyli bo'lishiga ishora qilingan. "Bas, agar oshiq bo'lsang shundoq kishiga bo'lgilki, ul ma'shuqalikka loyiq bo'lsin". Bunda bo'lg'usi er-xotinning nikohigacha davrda bir-birini ko'rib-bilib, sinab ma'shuqaning oqila, orasta, tejamkor, saranjom-sarishta, bola tarbiyasini, uy-ro'zg'or ishlarini o'rniga qo'yadigan kamtarin va eriga sadoqatli bo'lishi nazarda tutiladi.

Ey farzand, agar xotin olmoq tilasang, o'z hurmatingni yaxshi saqlagil. Garchi mol aziz bo'lsa ham xotin va farzandingdan darig' tutma. Ammo xotinni pok dil, farzandni farmonbardor va mehribon tutgil bu ish sening qo'lingdadir. Bu o'rinda xotinga xos munosabatda bo'lish erning ixtiyorida ekanligi ogohlantirilgan. Xotin talab qilsang, xotinni molini talab qilmagil, xotin pok nixok (toza tabiat va pok dil) bo'lsin. Kadbonu (uy bekasi va ishchan xotin)eriga do'st bo'lgay. Hayolig', taqvador, tili qisqa, molni yaxshi saqlaguvchi bo'lsin. Debdurlarki, yaxshi xotin erning va umrning rohati bo'lur. Bunda esa bo'lg'usi turmush o'rtog'ini tanlashda erning oldidagi mas'uliyat va latif xotin bo'lishga xos fazilatlar bayon qilingan.

Agar sen xotiningga rashklik qilmasang, u senga samimiyat bilan munosabatda bo'lur. U senga ota-onang va farzandlaringdin ham mushfiqroq bo'lur va senga undin do'stroq kishi topilmas. Agar unga g'ayirroq (rashk, qizg'anish) ko'rguzsang, senga ming dushmandin dushmanroq bo'lur va begona dushmandin hazar qilsa bo'lur, lekin undin hazar qilib bo'lmas. Bunda er-xotinning o'zaro munosabatlarini ziddiyatlarning shakllanishiga olib keluvchi sabablar va omillar haqida gap boradi.

YUusuf xos Hojibning mashhur asari "Qutadg'u bilig" (baxt saodatga yo'llovchi bilim)da er yoki xotin tanlashda uning qaysi sifat va fazilatlariga e'tibor berish zarurligi, inson shaxsiga xos sifat va fazilatlarning oilaviy hayotni

boshqarishdagi roli, o'zni va ahamiyati, er-xotin o'zaro munosabatlarining me'yorlari, farovon turmush kechirishning muhim shartlari haqida qimmatli fikrlar aytilganki, ular hozirgi oila turmushi va er-xotin munosabatlari uchun ham ahamiyatlidir. Asarda "Sen xotin olsang, o'zingdan quyisini ol, zoti oliysiga boqma, sen qul bo'lib qolasan". Asli, urug'i hamda zoti yaxshi bo'lsin, uyatli, andishali, pokizasini istagin.

YUzi chiroyini istama, xulqi yaxshisini ista, fe'l-atvori yaxshi bo'lsa, sening yuzingni yoritadi. Fe'lu-atvori yaxshi bo'lsa, u to'kis bo'ladi. Fe'lu-atvori to'g'ri bo'lsa, juda munosib bo'ladi, xotin chiroyi xulqdir, buni bilgan biladi.

Agar yaxshi andishali ayol topishga muyassar bo'lsang, boy berma (darhol olgin) ey ezgu kishi andishali, pokiza bo'lsa, unday kishi asl bo'ladi. Sen xotinning andishali-aqlisini ista, ey dono, andishali aqlli xotin topilsa - farosat, andisha, boylik, chiroy, nasl-nasab jam bo'ladi. "Sen xotinni qadrli tut, nima so'rasa muhayyo et".

Asarda xotin bilan bir qatorda er ham bilimdon, farosatli, aql-idrokli, zukko bo'lishi, oila tartibini saqlash va uni yuritishda intizomli (intizom o'rnatuvchi), uni kuzatib borishi kerakligi, oilaning iqtisodiy jihatdan to'kisligini ta'minlovchi, xotiniga va farzandlariga mehribon, xushmuomalali, to'g'ri so'z bo'lishi uning farovonligi va barqarorligini ta'minlovchi muhim omillar ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Alisher Navoiy (1441-1501) "Mahbub ul qulub", ya'ni "qalblar sevgilisi" va "Vaqfiya" asarlarida oilaviy turmushi bilan bog'liq er va xotinning vazifalari, burchlari, o'zaro munosabat-muloqot madaniyati, ularning muvofiqligi va nomuvofiqligi, uning oqibatlari haqida qimmatli nasihat va ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Jumladan, Alisher Navoiy "Mahbub ul qulub" asarining 37 fasl "uylanganlik va xotinlar to'g'risida" ayolning fazilatlarini va uning oiladagi o'zni haqida quyidagilarni yozadi; "er bilan xotin bir-biriga mos tushsa, o'rtada boylik va saranjomlik bo'lur, uy bezagi undan va uylanganning (erning) tinchligi undan.

Husni bo'lsa, ko'ngilga yoqimli bo'lur, yaxshiligi bo'lsa, jon ozig'idir. Aqlli bo'lsa, turmush intizomli va ro'zg'or kerak yarog'i tartibli va saranjomli bo'ladi.

Ana shunday turmush o'rtog'i bo'lsa - g'am kulfatda sirdosh va hamdaming bo'lur, maxfiy va yashirin dard va mashaqqatda hamnafas va hamrohing bo'lur. Turmushdan har jaf o'lsa, hasratdoshing ul va osmondan har bir balo kelsa, ko'makdoshing ul. Ko'ngling g'amidan ul g'am chekadi.

Nosoz juft uy uchun ham ochiq va ham yashirin qo'rqinchli kasallikdir. Uyatsiz bo'lsa, ko'ngil undan ozorlanadi, yaramas bo'lsa, ruh undan azob tortadi. Tili yomon bo'lsa kuyovning ko'ngli yaralanadi, yomon ishlik bo'lsa, erga yuz qarolik keladi. Mayxo'r bo'lsa, uy obodonligi yo'qoladi va buzugi bo'lsa uy ichi rasvogarlikka aylanadi".

Alisher Navoiy mazkur asarida (11 qismida) har bir kishi uchun zarur bo'lgan yaxshi fe'llar va yomon xislatlar to'g'risida qanoat, sabr, tavozu' va odob, ishq, vaf o, hayo, yumshoq ko'ngillilik va bir qator yomon illatlar to'g'risida qimmatli maslahatlar beradi.

Alisher Navoiyning fikrlarini psixologik nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, o'sha zamonlarda ham, hozir ham yigit va qizlarning o'zlariga har tomonlama mos turmush o'rtoq tanlashi, ularda zarur sifat va fazilatlar mujassamligi oilaning baxti va farovonligidir. Bir-biriga nomunosib er yoki xotin oilaning tanazzulidir.

Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505) o'zining hayotdan olgan saboqlari, tajribalari asosida insonparvarlik, ijtimoiy hayot, oilaviy odob, adolat, halollik, sofdillik, to'g'rilik, rostgo'ylik haqidagi fikrlarini qiziqarli hikoyalar, rivoyatlar, pandu-nasihatlar yordamida bayon etgan. U salbiy axloqiy xislatlarni qoralaydi va ularning inson hayoti va jamiyat uchun katta zarar olib kelishini qator ibratli rivoyatlar bilan ko'rsatadi. Koshi-fiy jamiyatda, odamlar o'rtasida va oiladagi o'zaro munosabatlarda axloq me'yorlari bo'lib, bu me'yorlar insonlarning xulq, fe'l-atvorlarini tartibga solib turadigan axloqiy talablardir, deb baholaydi. U ijobiy xislatlarning kishilarda bo'lishi shart bo'lgan insoniy fazilat deb tushunadi. Insoniy fazilatlar; sabr, hayo, iffat, pokizalik, sobitqadamlik, saxiylik, rostgo'ylik, shijoat, kamtarlik, xushyorlik, oliyhimmatlilik, diyonatlilik, ahdiga vafollik, andishalilik, izzat-hurmatni bilish, sir yashira olish kabi fazilatlarini birma-bir ta'riflab, ularning ahamiyati va oqibatlarini aytib o'tadi.

O'z davrining etuk ulamosi Rizouddin ibn Faxruddin er-xotin munosabatlarning sofliigi naqadar muhim ahamiyat kasb etishini e'tirof etgan holda bu masalaga shunday yondashadi. "Go'zal muomalali bo'lmoq islom shariatining birinchi qoidalaridandir. Go'zal muomalaning eng lozim qismi xotin bilan bo'lajak muomaladir. Qur'oni Karim xotinlar bilan go'zal mushoirat etishga buyurgandir. Bunday muomala etuvchi erning dunyosi tuzuk, oxirati rohat bo'lur.

Xotinga go'zal muomala qiluvchi oliy tabiatli erlar shariatu aql tarafidan man etilgan narsalarga xotinlarini yo'llamaydilar va eng aziz bolasiga bo'lgan mehru-shafqati darajasida oqibat ko'rsatib, xotinlarini barcha mashaqqatdan saqlaydilar, qurbilari etmagan xizmatga buyurmaydilar".

Oilaviy hayot va undagi munosabatlar bobida Ahmad Donishning qarashlari alohida e'tiborga loyiqdir. U o'zining "Nodir voqealar" asarida oilaviy hayotning turli jabhalari nikoh odoblari, uylanish shartlari, ishq-muhabbat va sevishganlarning odobi, qaynona-kelin nizolari, farzandlarga vasiyat, kasb-hunarlarning foydasi haqida qimmatli fikrlarni bayon etgan. Uning fikricha, har bir inson muayyan yoshga etgandan keyingina unda uylanish va oila qurishga zarurat hosil bo'ladi. Bu davrga kelib inson oila nikoh munosabatlari, oilaviy hayot quvonchlari va tashvishlaridan boxabar, oilaviy baxt, farzand tarbiyasi, er-xotinlik va ota-onalik burchlarini tushunib etgandirlar. Ahmad Donish uylanish shartlariga o'sha davr uchun xos bo'lgan xislatli turmush quruvchilarning biron-bir kasb sohibi ekanligini, uy-joy sohibi bo'lishini, oila va oilaviy hayot masalalarini egallab olganliklarini nazarda tutadi. O'sha davrga xos uylanish shartlari (qiz tomonidan qo'yilgan) yangi oilaning farovonligi, to'kisligini ta'minlaydigan omillardan hisoblangan.

2.OILADA FARZANDLAR BILAN MULOQOTNI YULGA KUYISHNI TAJRIBA- SINOV NATIJALARI

2.1. Oiladagi farzandlar bilan muloqotni vositalari va darajalari

Bolalarni yoshlikdan avvalo oilada, so'ngra ta'lim maskanlarida muloqotga

o'rgatib boriladi. Muloqotga o'rgatishning usullaridan biri mashg'ulotlar tarzida shakllantirishdir. Bolani bog'cha sharoitida tarbiyachi turli mashg'ulotlar o'tkazib muloqotga o'rgatadi. Avval elementar o'zini tutish, kattalarga qanday gapirish, salom berish, minnatdorchilik bildirish kabi usullarni tarkib topshiriladi. Maktab yoshi davrida va keyinchalik shaxsga ijtimoiy - psixologik treninglar tashkil qilish orqali muloqotga o'rgatiladi. SHaxsning o'zi bu usullarga ijobiy munosabat bildirishi, faol harakat qilishi zarur. CHunki shaxs muloqotda bo'lmasdan faoliyat sub'ekti sifatida ham, individual inson sifatida ham to'laqonli rivojlana olmaydi. Tajribali psixolog A. A. Bodalev fikricha, hatto o'yin faoliyatida bola muloqotda bo'ladi. Ta'lim jarayonining asosida muloqotga o'rgatish masalasi birinchi o'rinda turadi. +olaversa mehnat ta'limi jarayonida kishilar doimo muloqotga ehtiyoj sezadilar. Muloqotning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, u insonni dunyoqarashini kengaytiradi va psixikasini rivojlantiradi. YA'ni barcha ruhiy jarayonlar muloqot orqali shakllanadi.

SHaxsning irodaviy sifatlarini rivojlantirish orqali ham uni muloqotga o'rgatish oson ro'y beradi.

Jamoa muhitini shakllantirishda ikkinchi tomon ham bor - bu jamoa a'zolarining ruhiy madaniyatini shakllantirishdir. SHu maqsadda o'quvchilarga ularning insoniy muloqot, inson shaxsi, bir-birini baholash xususiyatlari («men va boshqalar», „men boshqalarning ko'zi bilan») to'g'risidagi mulohazalarini rag'batlantiruvchi axborotni berish zarur. Uni insholar, suhbatlar, treninglar orqali uyushtirish mumkin. Maxsus mashqlar orqali muloqot usullariga o'rgatish shunga taalluqlidir. Ruhiy madaniyatga o'rgatishni o'smirlik yoshidan boshlash muhim, chunki o'z shaxsi haqidagi axborotga qat'iy ehtiyoj xuddi shu davrda vujudga keladi. O'smirlikda o'zining „Men“i xususida ziddiyatli kechinmalar boshlanadi. Ilk yoshlik paytida - o'z ruhiy holati haqida hayol surish kuchaygan, muloqot juda ahamiyatli va g'oyat tanlab o'tkaziladigan yoshda inson shaxsi, shaxslararo muloqot to'g'risidagi axborot zarurdir.

N.P. Anikeeva fikricha, boshqa odamlar bilan muloqotda har bir shaxs muayyan ijtimoiy rol ni egallaydi. [14,67]. Rollar shaxsni to'laroq ochib berishi,

uni niqoblashi mumkin. Lekin pozitsiya - rollarni tanlash albatta insonning o'z mohiyatiga, uning kuchiga, zaifligiga, salohiyat darajasiga, o'z-o'zini tanqid qila olishiga, xulq - atvorining puxtaligiga, o'zining chetdan ko'ra bilish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Ba'zan muloqotdagi muvaffaqiyatsizliklar yoshlarni benuqsonroq, himoyalanganroq bo'lish uchun o'zidagi eng yaxshi narsalarni yashirishga, buzishga majbur etadi. Erta o'smirlik paytida yig'it va qizlar yakkalik holatini boshdan kechiradi. Ular his-tuyg'ularini hech kimga aytishmaydi. O'zi haqidagi va atrofdagi kishilar haqidagi axborot - muloqot usullarini va mazmunli muloqotni tashkil etishga intilishni belgilab beradi. Buning uchun ruhiy tusdagi muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish kerak. Har bir kishiga xos bo'lgan ruhiy xususiyatlar asab tizimi turi bilan belgilanadi va avvalo temperamentda: ta'sir ko'rsatish sur'atida, ham tabiiy signallarda (ovoz, yorug'lik, rang, hid, haroratning o'zgarishi), ham ijtimoiy signallarda (so'z, voqea, o'ta sezgirlikda, emotsional ko'zg'aluvchanlikda, tashvishlilik darajasida, ekstraversiya, introversiya) namoyon bo'ladi. Ekstroversiya bilan introversiya kishining ruhiy tavsifi sifatida muloqot sohasida yorqin namoyon bo'ladi. Ekstroversiya - individning tashqi dunyoga, introversiya - ichki dunyoga qarashidir. Asab faoliyatining kuchli tipi bilan bog'liq ekstroversiya xususiyatlari ustun bo'lgan kishilar ancha kirishimli, aloqalar, tanishishlar doirasiga moyil bo'ladilar. Ular ishtiyoq bilan yangi tanishlar orttiradilar, shovqin - suronli davralarni yoqtiradilar. Introvertlar - bu asab faoliyatining zaif tipiga mansub kishilardir. Ular o'z ichki dunyolariga berilishga, kechinmalarga moyillar. Atrofdagilardan ko'p tashvishlanadilar, ular yaqinlarning tor doirasini ma'qul ko'radilar. "Ekstroversiya-introversiya" o'qining o'rtalarida joylashgan kishilar psixologiyada tsentrovertlar degan nomni olgan. Ular me'yorida kirishimli, me'yorida yolg'izlikka moyildirlar.

Nutq bilan ishlash orqali ham muloqotga o'rgatish mumkin. Masalan, ovozni baland chiqarib she'r o'qish, hikoyani gapirish kabi treninglar ham muloqotni shakllanishiga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni esa o'yin faoliyati davomida muloqotga o'rgatish oson kechadi.

Muloqotga o'rgatishda o'yin va noo'yin shakllarini qo'shib olib borishning ahamiyati katta:

1. Darsga norasmiy muloqot elementlarini kiritish. Ayni paytda didaktik o'yinlardan foydalanish, ularda muloqot tashkilotchisi rolini muallim emas, o'quvchilardan biri bajarishi.

2. E'tiborni javobning ijobiy jihatlariga qaratish. O'quvchilar o'rtoqlarining javoblarini xolisona baholashga maxsus o'rgatiladi, ayni paytda mayda - chuydalargacha e'tiborni qaratib, o'rtoqlarining javoblaridagi eng muvaffaqiyatli jihatlarini ajratib ko'rsatishni o'rganish. Kamchiliklarni qanday qilib yo'qotish haqida bahslashish, ya'ni kamchilikni bitta o'quvchining o'ziga aytish orqali ta'sir qilish.

3. Insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar SHarqda o'ziga xos xususiyatga ega. Ushbu o'quv qo'llanma jamiyatning yangilanish davrida inson ma'naviyati va ruhiyatida ro'y berayotgan o'zgarishlarning psixologik tabiatini anglashga yordam beradi.

YAratiladigan yangi qo'llanmalar oldiga talaba - yoshlarni ma'naviy dunyosini boyitish, ularning ongiga milliy g'oya asoslarini singdirish, vatanparvarlik hissini tarbiyalash, o'tmish va buyuk kelajak haqida fikrlash, u bilan faxrlanish hissini, yangicha tafakkurni shakllanishi jarayonidagi ziddiyatlar va ularni bartaraf etish talab etiladi.

Kishilar bir-birlari bilan muloqotga kirishar ekan, ularning asosiy ko'zlagan maqsadlaridan biri-o'zaro bir-birlariga ta'sir ko'rsatish, ya'ni fikr-g'oyalariga ko'ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarni o'zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. Psixologik ta'sir-bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va hatti-harakatlariga ta'sir ko'rsata olishdir.

Psixologiyada psixologik ta'sirning professor V.Karimovanning fikricha, uch vositasi farqlanadi [22,114].

1. Verbal ta'sir - bu so'z va nutqimiz orqali ko'rsatadigan ta'sirimiz. Asosiy vosita bu erda so'zlardir. Nutq-bu so'zlashuv, o'zaro muloqot jarayoni bo'lib, uning vositasi-so'zlar hisoblanadi. Monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham

kishi o'zidagi barcha so'zlar zaxirasidan foydalanib, eng ta'sirchan so'zlarni topib, sherigiga ta'sir ko'rsatishni xohlaydi.

2. Paralingvistik ta'sir-bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni ko'chaytiruvchi yoki so'saytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, tovushlar, to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi. SHunga qarab, do'stimiz bizga biror narsani va'da berayotgan bo'lsa, biz uning qay darajada samimiyligini bilib olamiz.

3. Noverbal ta'sirning ma'nosi "nutqsiz"dir. Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir-birlariga nisbatan tutgan o'rinlari, holatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada ko'chaytirib, suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Amerikalik olim Megrabyan formo'lasiga ko'ra, birinchi marta ko'rishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy bo'lishiga gapirgan gaplari 7%, paralingvistik omillar 38% va noverbal harkatlar 58% gacha ta'sir qilarkan.

Muloqotning qanday kechishi va kimning ko'proq ta'sirga ega bo'lishi sheriklarning rollariga bog'liq. Ta'sirning tashabbuskorida ataylab ta'sir ko'rsatish maqsadi bo'ladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqorida ta'kidlangan vositalardan foydalanadi. Masalan, rahbar xodimini unga ishi tushib chaqirsa, xodimini o'rnidan turib kutib oladi, quyuq so'rashadi, keyin maqsadga o'tadi. Ta'sirning adresati-ta'sir yo'naltirilgan shaxs. Lekin tashabbuskorning suhbatga tayyorgarligi yaxshi bo'lmasa yoki adresat tajribaliroq sherik bo'lsa, u tashabbusni o'z qo'liga olishi va ta'sir kuchini qayta egasiga qaytarishi mumkin bo'ladi.

Oilada pedagogik muloqot.

Oiladagi tarbiyaviy jarayon o'ziga xos xususiyatga ega. Uni oxiri va boshi yo'q. Biz bolani tug'ilgandan boshlab tarbiyalaymiz. Bola ota-onasining hatti-harakatlarini taqlid qilish orqali o'rganadi, hatto og'zidan nima chiqsa o'shani

qaytaradi. Demak, ota-ona bola shaxsini shakllanishi uchun ideal tarbiyachi bo'lishi kerak. Oiladagi tarbiyaviy jarayon avvalo bola bilan ota-ona o'rtasidagi doimiy muloqotdir. Bolani tarbiyasi yaxshi bo'lishi uchun uni sevish kerak. Biz bola bilan muloqotga necha mino't vaqt ajratamiz? SHuni o'ylab ko'rish kerak. 1 soat vaqt ajratsak, bu yaxshi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ota-ona va bola o'rtasidagi muloqot bir so'tkada 1,8 soatni tashkil qilar ekan. Ona 35 minut muloqotda bo'lar ekan: "qorning ochmi? Nima eysan?" kabilar tarzida. Bola savol bersa ayrim ota-onalar javob bergisi kelmaydi. Ona ovqat tayyorlash bilan ovora, ota gazeta o'qish bilan. Turli yoshdagi farzandlarda u yoki bu muammo bo'lishini biz kattalar bilishimiz, unga vaqt ajrata olishimiz kerak [24,67]. Moddiy g'amxo'rlik bolaga, uning tarbiyasi uchun, muloqoti shakllanishi uchun etarli emas. Bolani kalbiga quloq sola bilishimiz muhim. Ota-ona o'rtasidagi nizolarning kelib chiqishining sabablaridan biri bolaga e'tibor bermasligidadir. Nima uchun biz hamkasblarimiz bilan, do'stlarimiz bilan qancha muloqotda bo'lsak ham qoniqmaymizu, lekin farzandimiz bilan kam muloqotda bo'lamiz?

Ota-onaning e'tibori oilada hissiyot madaniyatini tarbiyalashga yordam beradi. SHunday savol tug'iladi: Nima uchun o'smirlar jinoyatchilik ko'chasiga kirib qolayapti? Masalan, o'smirlar keksa kishini o'lgudek kaltaklashayapti. Demak, biz kattalar farzandimizga e'tiborliroq bo'la olmayapmiz. Ularning ko'ngliga quloq solmayapmiz. Ularda boshqalar g'amiga hamdard bo'lish tuyg'usini shakllantira olmayapmiz. YOshlar bilan moda haqida gaplashsangiz ular siz bilan ko'ngildan muloqotda bo'ladilar. SHu tariqa ularning ko'ngliga qo'l solish mumkin.

Bolalar bilan ota-ona o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkillashtirish uchun turli to'siqlar xalaqit beradi. Jumladan, band bo'lish "to'sig'i", ota-onalar doimo band bo'lishadi, bolaga e'tibor berolmaydilar, chunki ularning uy yumushlari ko'p. Bu bolada hissiy rivojlanishni to'xtashiga olib keladi. Ikkinchi to'siq- yoshga bog'liq "to'siq" bo'lib, bunda kattalarning yoshi ulug bo'lgani uchun bolani tushunmaydilar. Bolaning ichki dunyosini hisobga ololmaydilar. Kattalar uchun arzimaydigan narsalar bola uchun muhim bo'lishi mumkin. Eski

qolip “to’sigi”- ota-onalar o’zining bolasini yoshi ulg’ayib borayotganini sezishmaydi. Farzand ulg’ayib borgan sari ota-onasining u bilan hisoblashishlarini istaydi. SHuning uchun ular o’rtasida tushunmovchiliklar, nizolar tug’iladi. Biz kattalar farzandlarimiz bizni doimo tinglashlarini xohlaymiz, bizga bo’ysunishlarini istaymiz. Ularning mustaqil fikrlarini eshitishga erinamiz. Demak, kattalar bolaga nisbatan eski qarashlarini yo’qotishlari lozim. SHunda o’rtadagi to’siq yo’qoladi.

Tarbiyaviy an’analardagi “to’siq”-ota-onalar oiladagi ilgarigi tarbiyaviy ta’sir usullarini qo’llaydilar, bolani ruhiy rivojlanishi darajasini hisobga olmaydilar. Ular o’zlarining malakalarini oshirish ustida ishlamaydilar. Natijada bola bilan o’rtalarida to’siq paydo bo’ladi, bir-birlarini tushuna olmaydilar.

Didaktizm “bar’eri(to’siq)”-bunda ota-onalar bolaga doimo aql o’rgatadilar.”Unday qilma,” “Bu to’g’ri, bu noto’g’ri” va h.k. Bolaning har bir qadami o’lchanadi, baholanadi. Bu esa bolada zo’riqishni yuzaga keltiradi, asabiy bo’lib qoladi. Demak, yuqoridagi “to’siqlar”ni yo’qotish uchun ota-ona farzandi bilan to’g’ri muloqotda bo’lish yo’llarini izlab topishi kerak. SHundagina bola bilan til topa olishlari mumkin bo’ladi.

2.2.Ota-onalarni uz farzandlari bilan bo’ladigan o’zaro munosabatlarni aniqlash metodikasi natijalari.

Insoniy munosabatlar o’zaro shunday ta’sir jarayonlariki, unda shaxslararo munosabatlar shakllanadi va namoyon bo’ladi. Bunday jarayon dastlab kishilar o’rtasida ro’y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvishu-quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Kishilar muloqotda bo’lgani sari ular o’rtasida umumiylik, o’xshashlik va o’yg’unlik kabi sifatlar paydo bo’ladiki, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan yoki “yarimta jumladan” ham fikr ayon bo’ladigan bo’lib qoladi, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig’izligi teskari reaksiyalarni – bir - biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. Masalan, oila muhiti va undagi munosabatlar ana shunday tig’iz munosabatlarga kiradi. Faqat bunday tig’izlik oilaning barcha

a'zolari o'rtasida emas, uning ayrim a'zolari o'rtasida bo'lishi mumkin.(ota-ona, qaynona-kelin).

O'zaro munosabatlarga kirishayotgan tomonlar munosabatdan ko'zlaydigan asosiy maqsadlari- o'zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Har qanday faoliyatdan zerikish, charchash mumkin, faqat kishi muloqotdan, ayniqsa uning norasmiy, samimiy, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladilar. XXI asr bo'sag'asida kishining eng tabiiy bo'lgan muloqotga bo'lgan ehtiyoji, uning sirlaridan habardor bo'lish va o'zgalarga samarali ta'sir eta olishga bo'lgan intilishi yanada oshdi va buning bir qator sabablari bor.

Birinchidan, axborotlarni ko'pligi aynan inson manfaatiga aloqador ma'lumotlarni saralash, u bilan to'g'ri munosabatda bo'lishni taqozo qiladi. Axborot XXI asrda eng nodir kapitalga aylanadi va bu o'z navbatida insonlarga zarur axborotlar o'zatilishi tezligi va tempini o'zgartiradi.

Ikkinchidan, turli kasb-faoliyat sohasida ishlayotgan kishilar guruhining ko'payishi, ular o'rtasida munosabatlar va aloqaning dolzarbligi axborotlar tig'iz sharoitda oddiygina muloqotni emas, balki professional, bilimdonlik asosidagi muloqotni talab qiladi.

Uchinchidan, oxirgi paytlarda shunday kasb-xunarlar soni ortdiki, ular sotsionomik guruh kasblar deb atalib, ularda "odam-odam" dialogi faoliyatning samarasini belgilaydi. Jumladan, pedagogik faoliyat, boshqaruv tizimi, turli xil xizmatlar, marketing va boshqalar.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston kelajagining poydevori.T. 1997.
2. Barkamol avlod orzusi. T. 1999 .
3. Karimov I. Vatanimizning tinchligi va havfsizligi o'z kuch - qudratimizga, halqimizning hamjihatligi va buqilmas irodasiga bog'liq. T. "O'zbekiston" nashriyoti. 2004. 32 b.
4. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. T. ToshDPU.2002.(o'quv qo'llanma).

5. . Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T. 1999.
6. Karimova V. Akramova F. Psixologiya. T. 2000.
7. Karimova V. Psixologiya. (o'quv qo'llanma).T. 2002.
8. 6.Kan-Kalik. Uchitelyu o pedagogicheskom obhenii. M. "Prosvehenie". 1987.
9. (o'quv qo'llanma).
- 10.Panasyuk A.YU. Psixologicheskaya nauka na slujbe u rukovoditelya. M. 1990.
(o'quv qo'llanma).
- 11.G'oziev E. Muomala psixologiyasi. T. 2001 .
- 12.G'oziev E. Tafakkur psixologiyasi. T. 1999.
- 13.G'oziev E. Psixologiya. T. "O'qituvchi" nashriyoti. 2003. (darslik)
- 14.Maxsudova M. Umumiy psixologiya. (ma'ruzalar matni) N. 2002.
- 15.Maxsudova M. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. (uslubiy qo'llanma) N.2003.
- 16.Maxsudova M. Kurbonova Z. Umumiy psixologiya. N. (muammoli ma'ruzalar matni). 2004.
- 17.Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. (muammoli ma'ruzalar matni). N. 2004.
- 18.Munavvarov A.Q. «Oila pedagogikasi» T.o'qituvchi. 1998 yil.
- 19.Inomova M.O. «Oilada bolalarning ma'naviy ahloqiy tarbiyasi» T. 1999 yil.
- 20.Inomova M.O. «Oilada bolalarni ma'naviy ahloqiy tarbiyalashda milliy qadryatlar» T.fan. 1995 yil.
- 21.Safo Ochil «Mustaqillik ma'naviyati va asoslari» T. O'qituvchi 1995 y.
- 22.A,Avloniy. «Turkiy guliston yohud ahloq» T. O'qituvchi. 1992 y.
- 23.Kaykovus «Qobusnoma» T. Meros 1992 y.
- 24.Pedagogika. Mavlonova R. Taxriri ostida. T. O'qituvchi. 2002 y.
- 25.To'raeva O «Oilada bola tarbiyasi» T. O'qituvchi 1995 y.
- 26.K.Xoshimov , S.Nishanov, M. Inamova Pedagogika tarixi. T.1996 y.
- 27.O'zbek pedagogikasi antalogiyasi T. 1999 y.
- 28.J.YUldashev, S.Xasanov « Avestoda axloqiy ta'limiy qarashlar»T.1992 y.
- 29.M.Murodov «Oltin sandiq ochilsin» T.1994 y.
- 30.F.F. Xidirova . Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash. T.2006

Ilova 1.

SHaxsning muloqotga kirishuvchanligini aniqlash testi.

1. Mas'ul ishga duchor bo'lganingizda hayajonlanasizmi?
2. Axvolingiz yomon bo'lguncha ham shifoqor chaqirmaysizmi?
3. Kutilmaganda ma'ruza qilasiz desa noroziliq bildirasizmi?
4. Mehmonxona tayin bo'lmasa ham begona shaharga safarga borishdan bosh tortasizmi?
5. Begona kishiga kechinmalaringizni so'zlaysizmi?
6. Begona odam sizdan yo'lni yoki vaqtni so'rasa g'ashingiz keladimi?
7. Har xil avlod o'rtasida hayot masalasida kelishmovchilik bo'ladi deb o'ylaysizmi?
8. Bir necha oy ilgari tanishingizga bergan pulingizni so'rashga hijolat qilasizmi?
9. Kafeda sifatsiz taom keltirishsa indamay qo'yaverasizmi?
10. Vagonda bir necha soat begona yo'lovchi bilan ketsangiz gapni birinchi bo'lib boshlaysizmi?
11. Navbatda turish maqsadingizga erishish uchun zaruriyat bo'lsa ham o'zundan uzoq navbat kutishdan voz kechasizmi?
12. Xodimlar o'rtasida bo'lgan mojaroni hal qilishdan o'zingizni olib qochasizmi?
13. Biror adabiyot yoki san'at haqida gap ketsa o'z fikringizni himoya qilasizmi?
14. Sizga yaxshi malum bo'lgan masala bo'yicha noto'g'ri fikr eshitsangiz jim tura olasizmi?

Ilova 2.

Ota-ona va bola o'zaro munosabatlarini IPSning 9-10 savollari yordamida o'rganildi. Bunda ikkita savol berilgan edi:

- 1) Siz o'z farzanlaringiz bilan bo'lgan munosabatlaringizdan qoniqasizmi?
- A) ha, juda yaxshi deb o'ylayman
- B) umuman qoniqarli, desa bo'ladi
- V) o'rtacha baholasa bo'ladi
- G) ochig'i men bu munosabatdan qoniqmayman
- D) tez-tez urishib qolamiz
- 2) Kun bo'yi bolangiz bilan muloqotga taxminan qancha vaqt ajratasiz?
- A) 5-10 minutdan ortmaydi
- B) o'rtacha yarim soat ketadi, deb o'ylayman
- V) 1-2 soat bo'lsa kerak
- G) kuni bo'yi birgaman
- D) menda bunga afsuski vaqt yo'q.

Quyida berilgan jadvalda yuqoridagi savollarga berilgan javoblar otalar va onalarniki alohida qilib keltirilgan.

Ko'rinib turibdiki, ota-onalarning o'z farzandlari bilan o'zaro munosabatlarini umuman qoniqarli, deb baholagan holda, «qoniqmayman» degan javobning onalarda ko'proq ekanligini ta'kidlash mumkin. Demak, onalar o'zlarining farzand tarbiyasidagi mas'ulligini ko'proq anglaydilar va bunda o'zlariga ko'proq talabchandirlar.

Ilova 3

Xonqa tumanidagi Dustlik fermerlar uyushmasida 18 ta oilada ota-onalarning o'smir bolalari dunyoqarashlari, xayotiy qadriyatlari mazmuni munosabatlari xaqida so'rovnoma natijalari. Ota va onalarning bolasi tarbiyasiga mas'ulligi to'g'risidagi fikrlari (jami №=110, % hisobida)

Savollar variantlari	Otalar fikri	Onalar fikri
1. Siz o'z farzanlaringiz bilan bo'lgan munosabatlaringizdan qoniqasizmi? A) ha, juda yaxshi deb o'ylayman B) umuman qoniqarli, desa		

<p>bo'ladi</p> <p>V) o'rtacha baholasa bo'ladi</p> <p>G) ochig'i men bu munosabatdan qoniqmayman</p> <p>D) te-tez urishib qolamiz</p> <p>2. Kun bo'yi bolangiz bilan muloqotga taxminan qancha vaqt ajratasiz?</p> <p>A) 5-10 minutdan ortmaydi</p> <p>B) o'rtacha yarim soat ketadi, deb o'ylayman</p> <p>V) 1-2 soat bo'lsa kerak</p> <p>G) kuni bo'yi birgaman</p> <p>D) menda bunga afsuski vaqt yo'q.</p>		
--	--	--

Ilova 4

Ota-onalarning o'smir bolalari psixologiyasini tushunishlari bilan o'zaro munosabatlari haqidagi fikrlarning solishtirma ma'lumotlari

(20 ta oila misolida)

Savollarga javoblar	Otarlar fikri		Onalar fikri	
	Anketa bo'yicha	«A» guruh (mutloq son)	Anketa bo'yicha	«A» guruh (mutloq son)
2. Siz o'z farzanlaringiz bilan bo'lgan munosabat-laringizdan qoniqasizmi? A) ha, juda yaxshi deb				


<p>o'ylayman</p> <p>B) umuman qoniqarli, desa bo'ladi</p> <p>V) o'rtacha baholasa bo'ladi</p> <p>G) ochig'i men bu munosabatdan qoniqmayman</p> <p>D) te-tez urishib qolamiz</p> <p>2. Kun bo'yi bolangiz bilan muloqotga taxminan qancha vaqt ajratasiz?</p> <p>A) 5-10 minutdan ortmaydi</p> <p>B) o'rtacha yarim soat ketadi, deb o'ylayman</p> <p>V) 1-2 soat bo'lsa kerak</p> <p>G) kuni bo'yi birgaman</p> <p>D) menda bunga afsuski vaqt yo'q.</p>				
---	--	--	--	--

Ilova 4


O'smirlarning ota-onalari bilan muomalasiga oid javoblari qiymati
(% hisobida)

Savol va javob variantlari	ƒizlarning javoblari n = 76		O'g'il bolalarning javoblari n=69	
	SHahar N=35	qishloq n=41	SHahar n=40	Qishloq n=29
Sizning ota-onangiz bilan muomalada o'ziga xos uslubingiz bormi?				


A. ha, men bu uslubni kattalardan o'rganman				
B. O'zimning shaxsiy uslublarim bor				
V. Alohida bittasini ajratishim qiyin				
G. Aytolmayman, bu qiyin ish				
D. Yo'q, bo'lishi mumkin emas				




Otalar fikri




Onalar fikri





Qizlarning javoblari



O'g'Il bolalarning javobi

